



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2023-yil
28-sentabr
payshanba

№ 39 (4629)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz



JAHON OBODLIGI USTOZ BILANDIR

Jahon obodligi ustoz bilandir,
Dilda qaror bo'lmas, ustoz bo'lmasa.
Kamolot, kushufot ustoz bilandir,
Ishda baror bo'lmas, ustoz bo'lmasa.

Ustoz qadrin bilur har qalbi salim,
Hayot darslaridan bergaydir ta'lim,
Dillar ardog'ida – aziz muallim,
Kimsa sardor bo'lmas, ustoz bo'lmasa.

**BAYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN, AZIZ USTOZLAR,
MEHRIDARYO MURABBIYLARI!**



KASBIY SALOHİYAT VA MAHORAT TANTANASI

Ichki ishlar organlari tergov xizmati xodimlarining bilim saviyasini oshirish, xizmat, jangovar va jismoniy tayyorgarligini kuchaytirish hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, o'z kasbining mohirlarini aniqlash maqsadida har yili an'anaviy tarzda «Eng yaxshi tergovchi» va «Eng yaxshi tergov jamoasi» ko'rik-tanlovi o'tkazib kelinadi.



Yaqinda tanlovning yakuniy respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Unda hududiy bosqichlarda saralangan 45 nafar eng yaxshi ishtirokchi o'z jamoasi tarkibida qatnashib, jismoniy, kasbiy, jangovar tayyorgar-



ligi, intellektual salohiyati, individual psixologik xususiyatlari yana bir bor sinovdan o'tdi. Shu bilan birga, tanlov yakunida ishtirokchilarning tergov faoliyati bo'yicha nazariy bilimni aniqlash maqsadida savol-javob asosida suhbat ham tashkil etildi.

IIV majlislar zalida bo'lib o'tgan taqdirlash marosimida so'z olgan Ichki ishlar vaziri o'rinbosari – Tergov departamenti boshlig'i, polkovnik Yahyojon Abdulhaqov so'nggi yillarda tizimda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islo-



hotlarga alohida to'xtalib, tergov sohasi xodimlari yaratilgan katta imkoniyat va qulayliklarga javoban o'z vazifasiga vijdonan yondashib, ichki ishlar organi xodimi degan sharaflar nomga munosib bo'lishlari lozimligini ta'kidlab. Bu

borada mazkur ko'rik-tanlov muhim ahamiyat kasb etishini qayd etdi.

Ko'rik-tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra, «Eng yaxshi tergov jamoasi» nominatsiyasi bo'yicha Namangan viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi jamoasi g'olib deb topildi. Samarqand viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi jamoasi ikkinchi, Xorazm viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi

jamoasi uchinchi o'ringa munosib ko'rildi.

– Astoydil qilingan harakat muvaffaqiyatga yetaklaydi, – deydi Namangan viloyati IIB jamoasi sardori, mayor Hayotbek Abdurahimov. – Bizning ham ana shunday urinishlarimiz o'z samarasini berib, g'oliblikni qo'lga kiritdik.

Tanlovning «Eng yaxshi tergovchi» nominatsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, leytenant Timur Reytnazarovga teng keladigan topilmadi. Surxondaryo viloyati Denov tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, katta leytenant Shoxruh Mardonov hamda Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi tergovchisi, leytenant Jamshid Sodiqov ikkinchi va uchinchi pog'onalardan joy olishdi.

– Tanlov do'stona, shu bilan birga, chinakam raqobat ruhida o'tdi, – deydi Nukus shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi tergov-



chisi, leytenant Timur Reytnazarov. – Bor bilimimni ishga solib, g'alaba sari astoydil intilishim o'z natijasini berdi. G'olib bo'lganimdan xursandman.

Aziz ZOKIROV,
podpolkovnik,
Shohruh ABDUSALOMOV,
kapitan.

ENG KATTA BAXT

Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatimni Hazorasp tumani IIB HOOB profilaktika inspektori vazifasida boshlaganman. O'shanda menga fidoyiligi bilan ko'pchilikning hurmat-ehtiromini qozongan ajoyib inson, profilaktika katta inspektori, kapitan Muzaffar Tojiyev murabbiy etib tayinlandi. U bilan ilk bor uchrashganimdayoq teran fikri, hayotiy qarashlari, samimiy munosabati menda ijobiy taassurot qoldirdi.

Xullas, ustoz-murabbiy degan sharaflar nomga muyassar bo'lgan inson qo'lida kasb sirlarini qunt bilan o'rgandim. Maslahatlariga, nasihatlariga amal qildim. Sohaviy xizmatning hali menga notanish bo'lgan qirralarini o'rganishga intildim.



Oradan yillar o'tdi. Bu orada ichki ishlar organlarining turli sohaviy xizmatlarida ishlab, kasbiy mahoratimni oshirdim. Muhimi, ustozimning ishonchini oqlashga intildim. Vaqt o'tib, men ham ozmi-ko'pmi hayotiy tajribaga ega bo'lgan murabbiy degan nomga muyassar bo'ldim. Ustozimdan nimani o'rgangan bo'lsam, o'sha hayotiy tajribalarimni, bilim va mahoratimni shogirdlarimga berishga harakat qildim.

Ustoz shogirdida o'z aksini ko'radi, deyishadi. Darhaqiqat shunday. Ba'zan shogirdlarimning yutug'ini, muvaffaqiyatini ko'rib, g'ururlanib ketaman. Mehnatim o'z samarasini berayotganidan quvonaman. Mayorlar Ixtiyor Qurbonov, Mahmud Abdullayev, kapitanlar Dilshod Ollashukurov, Elmurod Tojiyev, Sarvar Xo'jayev, katta serjant Doniyor Boltayev, safdor Jur'at Nurmetov singari ko'plab shogirdlarim ayni kunlarda ichki ishlar organlarining turli sohalarida samarali xizmat qilmoqda. O'zlarining g'ayrat-shijoati, kasbiga bo'lgan sadoqati bilan hamkasblariga o'rnak bo'layotgan bunday shogirdlarim bilan faxrlanaman. Bu ustoz-murabbiy uchun eng katta baxt.

Murodbek ZARIPOV,
Bog'ot tumani IIB JXX HPB boshlig'i,
mayor.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

HALOLLIK VA
MAS'ULIYAT UNGA XOS

Do'stlik tumani IIB boshlig'i, podpolkovnik Sherzod Qosimov Jizzax viloyati ichki ishlar organlari rahbarlari orasida eng namunalilardan biri sanaladi. U sohadagi ilk xizmat faoliyatini 2007-yilda Zarbdor tumanida profilaktika inspektori lavozimida boshlagan.



Sherzod Qosimov ikki yil o'tar-o'tmas shijoat va mas'uliyat bilan xizmat qilgani inobatga olinib, tergov tizimiga o'tkazildi. Chunonchi, Mirzacho'l tumani IIB tergov bo'linmasi tergovchisi, viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi, shaxsiy tarkib bilan ishlash guruhi katta inspektori vazifalarida xizmat qildi.

2017-yildan viloyat IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi hamda IIV O'z xavfsizlik boshqarmasi viloyat bo'limida mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi, shuningdek, bir yil davomida viloyat IIB Tezkor-qidiruv hamkorligi bo'limini boshqardi. Qolaversa, IIV Akademiyasida saboq oldi. I darajali magistrlik diplomini qo'lga kiritgach, unga Do'stlik tumani ichki ishlar bo'limiga rahbar etib tayinlandi.

Sherzod Qosimov ichki ishlar organlarida halollik va mas'uliyat bilan ishlash, el osoyishtaligini asrash, jinoyatchilikka qarshi kurashishni muqaddas burch deb biladi, o'qib-o'rganishdan to'xtamaydi. Ayni shu jihatlari uning lavozim pillapoyalaridan ildam ko'tarilishiga sabab bo'ldi va tabiiyki, zimmasidagi mas'uliyati ham ortib boraverdi.

Ayni vaqtda 68 mingdan ortiq kishi istiqomat qiladigan hududda huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishga mas'ul. Shu bilan birga, 3-sektor hududidagi «Saritepa», G'afur G'ulom,

«Bunyodkor» mahallalarida aholining turmush madaniyatini yuksaltirish, bandlikni ta'minlash, ijtimoiy yordam ko'rsatish hamda mavjud infratuzilmalarni yaxshilash va yangilarini yuzaga keltirish borasida faollik ko'rsatmoqda.

Podpolkovnik Sherzod Qosimov rahbarligidagi 3-sektor o'tgan yilda respublika miqyosidagi 832 ta sektor orasida eng namunali, deb topildi va I darajali diplom hamda 150 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, tumandagi 1-sonli o'rta umumta'lim maktabida uning tashabbusi bilan vatanparvarlik va huquq to'g'arigi faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur to'garak kelajagini huquqni muhofaza qilish organlarida ko'radigan yoshlar uchun tashkil etilgan bo'lib, tuman Ichki ishlar bo'limining yetakchi rahbar xodimlari o'quvchilarga saboq beradilar.

Chin dildan mehnat qilgan inson yuzaga chiqmay qolmaydi. Mamlakatimiz rahbarining «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»-gi farmoni asosida maqolamiz qahramoni «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

«ISHONCHNI ALBATT
OQLAYMAN!»

Namangan viloyati IIB JXX Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi saf bo'linmalari PPX batalyoni 1-otryadi bo'linma komandiri, safdor Nodirbek Mo'minov eng ulug', eng aziz bayramni ikki karra quvonch bilan qarshiladi. Prezidentimiz farmoniga ko'ra, u davlatimizning yuksak mukofoti – «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.



Albatta, e'tirof ortida xodimning zahmatli xizmati mujassam. 14 yildan buyon sohada namunali xizmat qilib kelayotgan lavhamiz qahramoni o'tgan davrda o'z kasbiga sadoqatini namoyon eta oldi. Birgina joriy yilning o'tgan davrida xizmat yo'nalishida 700 nafar fuqaro bilan profilaktik suhbat o'tkazib, ularning shaxsiga oydinlik kiritishda faol ishtirok etdi.

qatoriga qo'shishgan, farzandlarning barchasi yurt xizmatida. Bugun oilaning kenja farzandi erishgan yutuqlardan, ayniqsa, aka va opalari juda xursand. Nodirbekning o'zi ham bugun ibratli oila boshlig'i. Turmush o'rtog'i Nafisa Mo'minova hamshira. Farzandlari Nilufar va Madina maktab o'quvchilari. Xushxabar yaxshi-da. Nodirbekni davlatimizning yuksak mukofoti bilan



Bundan tashqari, shaxsiy tashabbusi bilan 3 ta holatda o'g'irlik jinoyatlarini fosh etishga muvaffaq bo'ldi.

– Kamtarona xizmatim yuksak baholangani kuchimga kuch qo'shdi, – deydi safdor Nodirbek Mo'minov. – Bunday quvonchli lahzalarda ko'z oldimda rahmatli ota-onamning nurli siymolari gavdalandi... O'sha lahzalarda birgina narsani: ota-onamning ruhi shod bo'lganini o'yladim.

Kezi kelganda aytish lozimki, Nodirbekning padari buzrukvori Abduqahhor Mo'minov, volidasi Qumrixon Mo'minova 8 farzandni tarbiyalab el

qutlagani kelgan qarindoshlari, hamkasblari uning sha'niga iliq fikrlarni bildirishmoqda. Bundan o'zini biroz noqulay sezgan qahramonimiz shunday deydi:

– Oldinda katta vazifalar turibdi. Yuksak mukofotga munosib bo'lish, bildirilgan ishonchni oqlash uchun astoydil harakat qilaman.

Kishi boshqalarning yutug'idan quvonarkan, fidoyi xizmat evaziga ko'rsatilgan e'tibor insonni yanada yuksak marralarga chorlayotganiga ishonch hosil qiladi...

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.





Молодежь – наше будущее

ДОСТИГАЯ ВЫСОТ

В органах внутренних дел трудится немало молодых людей, добивающихся успехов не только в служебной деятельности, но и на спортивном поприще. В числе целеустремленных сотрудников рядовой Давлат Ходжаев.

Уроженец города Бухары, еще будучи школьником, серьезно занимался вольной борьбой, посещал спортивный зал «Чайка». Под началом тренера Ахмада Жумаева Давлат осваивал азы мастерства. Позже наставник приобщил перспективного подростка к занятиям смешанными единоборствами. В 12 лет Давлат стал победителем первенства республики в весовой категории до 32 килограммов. Молодой чемпион Узбекистана затем несколько раз успешно выступал на других турнирах.

Эти достижения позволили поступить на льготных условиях в Бухарский инженерно-технологический институт. Наряду с учебой он продолжил заниматься спортом. Упорные тренировки принесли свои плоды. Давлат

стал трехкратным чемпионом Узбекистана среди взрослых, победителем Международного турнира по вольной борьбе. Несколько раз защищал чемпионский пояс в смешанных единоборствах.

Волевой и решительный характер парня predetermined его профессию. После окончания института он подал заявление в Департамент исполнения наказания при МВД. Учитывая достижения Давлата в спорте, его определили в отряд оперативного реагирования в городе Ташкенте. Дисциплина, к которой приучили тренировки, позволила быстро освоить новые обязанности, выработать под началом наставников необходимые навыки. Через два года его перевели в Бухару и назначили младшим инспектором колонии по исполнению наказания № 17 шестой

региональной территории ДИН при МВД Республики Узбекистан.

Рядовой и на новом месте работы дружит со спортом. Д. Ходжаев разработал свою методику тренировок, поскольку выступает в двух видах спорта, добиваясь в каждом весомых результатов. Так, на Международном турнире по вольной борьбе, проходившем в Ташкенте, Давлат занял третье место в весовой категории до 79 килограммов. В августе в своей весовой категории стал абсолютным победителем турнира по рукопашному бою, организованному среди сотрудников правоохранительных органов Бухарской области.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.



Ветераны всегда в строю

НАКОПЛЕННЫЙ ОПЫТ – ДОРОЖЕ ЗОЛОТА

Сколько молодых следователей выросло под началом полковника в отставке Махаммаджона Махмудова сосчитать сложно. Со многими он поддерживает отношения до сих пор. Махаммаджон ака долгие годы проработал в следствии, вышел на заслуженный отдых в звании полковника с должности заместителя начальника УВД Андижанской области.



– Если ты однажды решил защищать спокойствие граждан и научился этому, то самое важное, что ты можешь сделать

как ветеран, – передать свои знания и опыт молодежи. Чтобы новые поколения сотрудников правопорядка становились

профессионалами своего дела, чуткими, готовыми к исполнению служебного долга, – говорит М. Махмудов.

Находясь на заслуженном отдыхе, ветеран ведет целенаправленную работу по воспитанию молодых сотрудников, делится с ними опытом, рассказывает о годах службы, дает дельные советы.

Инспектор профилактики махалли Урикзор Андижанского РОВД капитан Достонбек Турсунов частый гость в доме Махаммаджона ака. Он часто обращается за советом к ветерану, рассказывает о событиях на вверенном участке.

Плодотворная работа ветеранов с молодыми сотрудниками органов внутренних дел обеспечивает передачу бесценного наследия, преемственность и связь поколений.

Очагами патриотического воспитания сотрудников ОВД, гражданской молодежи стали музеи истории органов внутренних дел. Только с начала текущего года с участием ветеранов проведено более 40 встреч и экскурсий с сотрудниками ОВД, курсантами Академии МВД, учащимися школ и лицеев.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

На снимке: полковник в отставке М. Махмудов с капитаном Д. Турсуновым.



«УСТОЗ-ШОГИРД» АНЪАНАСИ

МАҚСАДИ – КАСБИНИНГ УСТАСИ БЎЛИШ

Тошкент шаҳар ИИББ ЭКМ эксперти, лейтенант Дилдора Мамадалиева ички ишлар органларидаги хизмат фаолиятини 2010 йилда Бош бошқарманинг Молия-иқтисод бошқармасида бошлади. Бироқ унга изқувар Шерлок Холмс каби жиноятларни очишга бўлган қизиқиш сира тинчлик бермасди. Шу боис ИИБ Академиясида таҳсил олиб, шу соҳани кунт билан ўрганди. Сўнгра хизмат фаолиятини Тошкент шаҳар ИИББ ЭКМда давом эттирди.

Қаҳрамонимиз ҳозир барча экспертиза тадқиқотлари ўтказиш ҳуқуқини берадиган гувоҳномага эга бўлган мураббийи, ЭКМ катта эксперти, майор Ҳамид Раҳимбоевдан соҳага оид сир-асрорларни синчковлик билан ўрганмоқда.

– Изланувчанлиги, тиришқоқлиги ва эксперт-криминалистика йўналишига қизиқиши Дилдоранинг ҳар бир ҳолатга эътибор билан ёндашишидан билиниб туради, – дейди майор Ҳ.Раҳимбоев. – Топшириқларни кам-кўтсиз бажаришга интилади. Билим ва салоҳиятини янада бойитишга ҳаракат қилади.

Лейтенант Д.Мамадалиева бу йўналишда хизматни бошлаганига кўп бўлмасда, устози билан бирга бир неча жиноятларни фош этишда қатнашди. Хусусан, жорий йилнинг 13 сентябрь куни номаълум шахс Миробод тумани Қўйлик-1 мавзесида қаровсиз қол-

дирилган «Дамас» русумли автоулов орқа эшик ойнасини ечиб, салондан 8 миллион сўм пулни ўғирлаб кетади. Экспертлар воқеа жойидан олинган қўл-бармоқ изларини

«SONDA» ва «PAPILON» дастури ёрдамида текширганида из фуқаро Н.Ж.нинг қўл-бармоқ излари билан мос эканлиги аниқланди. Ҳозирда ушбу шахс қўлга олиниб, унга нисбатан тер-

гов-суриштирув ҳаракатлари олиб борилмоқда.

18 сентябрь куни Яшнобод туманида яна бир жиноят «иссиқ изида» очилди. Соат тахминан 21:00 ларда авиасозлар кўчасида турган В.И. га тегишли «Спарк» автомашинаси салонига номаълум шахслар даб-дурустдан кириб ўтириб, ҳайдовчига таҳдид қилиб, ундан пул талаб қилишади. В.И. ўзини йўқотиб қўймай,

муштумзўрларга фаол қаршилик кўрсатади. Бундан кутмаган босқинчилар автоуловдан тушиб, номаълум томонга қочиб кетади.

Устоз ва шогирд ҳодиса жойини кўздан кечириш давомида «Спарк» автомашинаси ойнасидан бир неча бармоқ изларини олишга муваффақ бўлди. Қўл-бармоқ излари мавжуд автоматлаштирилган дактилоскопик таққослаш тизимларида текшириб кўрилганда, 3 та из фуқаро П.Т.нинг қўл бармоқ изи билан, 1 та из фуқаро Ф.М.нинг қўл-бармоқ изи билан бир хил экани аниқланган. Жиноятни содир этган шахслар узоққа қочиб қолмасдан қўлга олинди.

– Ҳозир дактилоскопия экспертизасини ўтказиш ҳуқуқини берувчи гувоҳнома учун имтиҳонга тайёргарлик кўряпман, – дейди лейтенант Д.Мамадалиева. – Бу борада мураббийим катта ёрдам бермоқда. Келажакда у каби ўз касбининг устаси бўлишни мақсад қилганман.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.



ҚИЛНИ ҚИРҚ ЁРИБ

АВТОМАШИНАДАГИ БАРМОҚ ИЗЛАРИ

Эрта тонгда деҳқон бозорига келган Зокиржон тезда ул-бул харид қилиб, автотураргоҳда турган автомашинасига шошилганча ўтирди. Аммо шу заҳоти таъби хира тортди. Боиси, машина саломида қолдирган 1000 АҚШ доллари ва 3 миллион сўм пули жойида йўқ эди.

Зокиржон дарҳол шаҳар Ички ишлар бўлимига қўнғироқ қилиб,

воқеани тушунтирди. Ҳодиса жойига етиб келган тергов-тезкор



гуруҳи ходимлари тезда ишга киришди. Жиноят қидирув гуруҳи ходимлари муқаддам ўғирлик, талончилик жиноятини содир қилган шахслар ҳақидаги маълумотларни ўргана бошлади. Шаҳар ИИБ Эксперт-криминалистика гуруҳи катта эксперти, майор Ҳурматбек Хўжаев ҳодиса жойида қолдирилган қўл-бармоқ изларидан намуналар олиб, вилоят ИИБ ЭКМга юборди. Шундан сўнг барчаси ойдинлашди. Автомашинадан олинган қўл-бармоқ излари муқаддам судланган хивалик Қ.Ў.га тегишли бўлиб чиқди.

Гумонланувчи аввалига қилмишини тан олмасдан, турли важларни тўқиб, ходимларни чалғитмоқчи бўлди. Аммо унинг жиноят содир бўлган вақтда бозор ҳудудидаги автотураргоҳда бўлгани, автомашинадан олинган қўл-бармоқ излари айнан унга тегишли экани исботлангач, тақдирга тан беришдан бошқа чора тополмади...

Хива шаҳар ИИБ Эксперт-криминалистика гуруҳи ходимлари жиноятларни тезкорлик билан

фош қилишда бор билим ва маҳоратларини ишга солишмоқда.

– Жорий йилнинг ўтган даврида 61 марта ҳодиса жойи кўздан кечирилиб, қўл-бармоқ излари бўйича 25 та эксперт-тадқиқот ишлари амалга оширилди, – дейди майор Ҳурматбек Хўжаев. – Шунингдек, 165 марта тергов ҳаракатларида, 265 марта тезкор-қидирув тадбирларида қатнашдик. Содир этилган қонунбузарликларга алоқадор бўлган излар орқали 2 та, эксперт-тадқиқот хулосалари натижаларига кўра 10 та жиноят «иссиқ изида» очилди.

Моҳир экспертлар томонидан амалга оширилаётган саъй-ҳаракатлар натижасида жиноят ва ҳуқуқбузарликлар қисқа фурсатларда фош этилиб, қонун устуворлиги таъминланмоқда.

Худойберган ЖАББОРОВ,
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.

Суратда: Хива шаҳар ИИБ ЭКМ катта эксперти, майор Ҳурматбек Хўжаев ҳодиса жойини кўздан кечирмоқда.



▶ **ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ**

САБОҚ ЙЎЛИ

«Хаёт – буюк муаллим», дейди донолар. Йиллар, йўллар одамни улғайтиради, сабоқ беради, тарбиялайди. Пенсияга чиқаётган киши ортга бир назар ташлаб, умр йўлини сарҳисоб қилиши табиий. Ана шундай пайтда ўтган умридан афсусланмаган, яхши ишларидан ғурурланган, фарзандларининг бахту камолини кўриб қувонган киши энг бахтли одам ҳисобланади.

Олтиариқ туманидаги Янгиараб қишлоғида яшовчи ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги подполковник Ҳалимжон Адҳамов ҳам ана шундай бахтли инсонлардан биридир.

Ҳ.Адҳамов 1955 йилда Олтиариқ туманида туғилган. Унинг отаси Адҳамжон ҳожи ҳалол, виждонли, тўғрисиўз, диёнатли одам эди. Шу боис фарзандларини ҳам ҳалолликка, тўғрисиўзликка ўргатди.

– Отам оддий деҳқон бўлса-да, тафаккури кенг инсон эди, – дея болалигини хотирлайди Ҳалимжон Адҳамов. – Оилада 11 нафар фарзанд эдик. Отам далада эртадан кечгача ишлаб, кетмон чоғиб, пешона тери билан бизни боққан. Ота-онамнинг берган тарбияси мени ҳаётнинг жуда кўп синовларидан эсон-омон олиб ўтди. Узоқ йил раҳбар бўлиб ишласам ҳам, бировнинг қўлига қарамадим, бойликка ҳирс қўймадим, нафсимга алданмадим.

Ҳ.Адҳамов болалигидан қатъиятли, меҳнатсевар, ҳаёт қийинчиликларига сабр-бардошли бўлиб улғайди. Мактабда яхши ўқиб, спорт билан шуғулланди, жамоат ишларидан фаол бўлди.

Ҳарбий хизматдан қайтган Ҳалимжон ҳеч иккиланмай 1976 йили Олтиариқ тумани ИИБда оддий ходим сифатида хизматни бошлади.

Лавҳамиз қаҳрамони ўз олди-га улкан мақсадларни қўйганди. Шу сабабли 1979 йилда Тошкент ўрта-махсус милиция мактабига ўқишга кирди. Уни муваффақиятли тамомлаб, лейтенант махсус унвони билан Фарғона шаҳрига ишга келди. Дастлаб профилактика инспектори бўлиб хизмат қилди. Фарғона шаҳри марказида, энг гавжум ҳудудда ишлаб, тажриба тўплади. Кейинчалик профилактика бўлинмасига бошлиқ бўлди. Хизмат билан бир пайтда Фарғона давлат университетининг тарих, кейин ҳуқуқшунослик факультетидан сиртдан таҳсил олиб, ўз билимини ошириб борди.

1991 йил июль ойида уни ўзи туғилиб ўсган жой – Олтиариқ тумани ИИБ бошлиғига биринчи ўринбосар қилиб тайинлашди. Ҳалимжон Адҳамов шахсий таркибни ягона мақсад йўлида бирлаштириб, жиноий гуруҳларга қарши аёвсиз кураш олиб борди. Натижада жиноятчиликнинг пайи қирқила бошлади.



Криминоген вазият аста-секин изига тушди.

1996 йилда қаҳрамонимиз вилоят Ички ишлар бошқармасида, кейинчалик Фарғона шаҳридаги 1-милиция бўлинмасида хизматни давом эттирди. Наманган вилоятининг Мингбулоқ ва Поп туманлари ИИБ бошлиғи лавозимида самарали хизмат қилиб, ўнлаб шогирдлар етиштирди.

Ўттиз йилдан зиёд умрини эл-юрт осойишталигини таъминлашга бағишлаган Ҳалимжон Адҳамов мана 17 йилдирки пенсияда. Турмуш ўртоғи Шарофатхон ая билан тувликда 4 нафар фарзандни тарбиялаб, вояга етказди. Айни кунда улар 12 нафар набиранинг сеvimли бобоси ва бувисига айланган.

Ҳалимжон отанинг тўнғич фарзанди, полковник Аҳроржон Адҳамов

ота изидан борди. У айна пайтда Ички ишлар вазирлиги Тезкор-қидирув хизмати бошлиғининг ўринбосари – Жиноят қидирув хизмати бошлиғи лавозимида фаолият кўрсатмоқда.

Истеъфодаги подполковник Ҳалимжон Адҳамов пенсияга чиққач, «Адҳам ҳожи» фермер хўжалигини ташкил этди. Фермер хўжалиги айни кунда пахта ва ғалла етиштириб, мамлакатимиз тараққиётига муносиб ҳисса қўшяпти. Икки ўғли ана шу хўжалик ишини юритишмоқда. Ҳалимжон Адҳамов эса уларга бош-қош бўлиб, маслаҳат ва йўл-йўриқ кўрсатиб келяпти.

Абдусит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.

▶ **«ХОДИМБАЙ» ИШЛАШ**

ҲАРБИЙЛАР ДОИМ ЭЪТИБОРДА

Ички ишлар вазирлиги Халқаро аэропортларда хавфсизликни таъминлаш қўшинларига қарашли 7258-сонли ҳарбий қисм командирининг тарбиявий ва мафкуравий ишлар бўйича ўринбосари, подполковник Азиз Элов «ходимбай» ишлаш тизими асосида ҳарбий хизматчиларнинг хизмат жойи, яшаш хонадонини ўрганиб, аниқланган камчиликларни бартараф этиш юзасидан керакли тавсияларни бериб келмоқда.

Бугун у оддий аскарлар Сардор Холтўраев ва Низомжон Ҳайитбоев билан суҳбатлашди. Суҳбат жараёнида уларнинг ахлоқий-руҳий ҳолати, хизматга бўлган муносабати ўрганилди. Ҳарбий хизматчиларнинг яшаш шароитини ўрганиш мақсадида кичик сержантлар Жасур Муртазов ва

Ислом Темировнинг ижара уйларида борилди. Мавжуд муаммоларни ҳал этиш юзасидан зарурий чора-тадбирлар белгилаб олинди.

Шунингдек, ҳарбий хизматчиларнинг маънавий олами, савол-жавобда аниқланмоқда.

Таъкидлаш жоизки, ҳарбийлар орасида китобхона-



лар кўпчиликини ташкил этади. Ана шундайлардан бири – махсус вазифаларни бажарувчи сафарбарлик взводи 1-ишғол гуруҳи мутахассиси, оддий аскар Бобир Хайруллаев яқинда ўқиган Фафур Фуломнинг «Шум бола» асаридан олган таассуротларини гапириб берди.

– «Ходимбай» ишлаш тизими кундалик вазифаларни тартибга солиш билан бирга, аниқ режа асосида ишлашимизда асқатяпти, – дейди подполковник Азиз Элов. – Ўз вақтида ҳарбий

хизматчиларнинг яшаш шароитини ўрганиб бораётиб. Қолаверса, ҳарбий хизматчиларнинг хизмат интизоми ва қонунийликка риоя қилишига устувор вазифа сифатида ёндашилиб, камчиликларга йўл қўйганларнинг қилмиши муҳокама этилмоқда. Сафдошларига намуна бўлаётган ходимлар эса рағбатлантириляпти.

Ҳарбий хизматчиларнинг оила аъзоларини иш билан таъминлаш учун Бухоро шаҳридаги мономарказга йўналтирилмоқда. Яқинда

кичик сержант У.Мирзаевнинг турмуш ўртоғи мономарказда тикувчилик-моделлаштириш курсини тамомлаганди. У айна пайтда тадбиркорлик билан шуғулланмоқда. Майор И.Ваҳобовнинг турмуш ўртоғи эса олий маълумотли бўлганлиги сабабли Когон туманидаги 14-сонли умумтаълим мактабига она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси мутахассислиги бўйича ишга жойлаштирилди.

– Ҳарбий хизматчилар ва аскарларни маданий объектларга саёҳатга олиб бориш режа бўйича амалга оширилмоқда. Ўтган ой вилоятдаги «Чор-бакр» зиёратгоҳи ҳамда Роми-тан туманидаги «Bukhara warnet» номли ботаника боғига икки марта саёҳат уюштирилди, – дейди подполковник А.Элов.

Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.



Tadbir

TARAQQIYOTNING USTUVOR YO'NALISHLARI



IIV Moliya va moddiy-texnika ta'minoti departamenti Harbiy tuzilmalarning faoliyatini ta'minlash bazasida «O'zbekiston – 2030» strategiyasining ustuvor yo'nalishlari hamda maqsad-vazifalariga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

«Harbiy xizmat sharaflari kasbidir» shiori ostida o'tgan tadbirni baza boshlig'i, podpolkovnik Isoqjon Xolmirzayev ochib, mamlakatimizda qonun ustuvorligining

ta'minlanishi osoyishtalik garovi bo'lib kelayotganiga hayotiy misollar orqali to'xtalib o'tdi. Shuningdek, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan

qonun ustuvorligini ta'minlash, mamlakatimizni xavfsiz hamda tinchliksevar davlatga aylantirish yo'nalishi haqida so'z yuritib, bu har bir xodim zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashini ta'kidladi.

Tadbirda Toshkent Islom instituti Ilmiy tadqiqot bo'limi mutaxassisi Ma'murjon Erkayev, Respublika OITSga qarshi kurashish markazi Axborot-tahlil va tashkiliy-nazorat bo'limi boshlig'i Mohigul Musabekova, Res-

publika «Ma'rifat targ'ibotchilari» jamiyati a'zosi, shoira Shahlo Ahrorova, IIV SHXBB Harbiy tuzilmalar bo'limi katta ofitseri, mayor Farrux Alibekov va boshqa so'zga chiqqanlar mavzu yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini harbiy xizmatchilar bilan o'rtoqlashdi. Anjumanda, shuningdek, xizmat intizomi va qonuniylikka rioya etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, harbiy xizmatchilarni turli zararli illatlardan himoyalash, psixotrop

moddalarning inson salomatligi va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri singari dolzarb masalalar yuzasidan ham mutaxassislarning fikr-mulohazalari tinglandi.

Qiziqarli savol-javoblar tarzida o'tgan tadbir harbiy xizmatchilarda katta taassurot qoldirdi. Mavzuga doir videoroliklar namoyishi ham yig'ilganlarga manzur bo'ldi.

**O'z muxbirimiz.
Ikrom HASANOV
olgan suratlar.**



Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi.

Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalga cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi

yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek, afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega.

Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalashni va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yarata-di.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi, 29-modda.**



KECHA



VA

Xorazm
viloyati.

BUGUN

2023-yil – *Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili*

Davlatimiz rahbarining ta'бири bilan aytganda, «Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir». Bu borada ko'plab sa'y-harakatlarini amalga oshirayotgan IIV Malaka oshirish instituti ham ichki ishlar organlari xodimlarini boshlang'ich, kasbiy va qayta tayyorlaydigan hamda ularning malakasini oshiradigan davlat ta'lim muassasasiga aylandi.

Ta'lim muassasasida tinglovchilar kunduzgi, masofaviy va mobil sayyor o'qitish tizimi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda o'qitib kelinmoqda. Hozirgi kunda institutda 2 ta kafedra va 5 ta siklda faoliyat yuritayotgan 80 nafarga yaqin pedagoglarning aksariyati ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilardir.

– Tinglovchilar zamonaviy bilim olishlari, raqamli texnologiyalar hamda maxsus vositalarni mukammal egallashlari, shuningdek, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan, – deydi ta'lim muassasasi boshlig'i, polkovnik Olimjon Ahmedov. – Shu bilan birga, ularning huquqiy ongi va madaniyatini

MALAKALI KADRLAR –

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi o'laroq, yurtimizda jahon talablari darajasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish imkoniyati yaratildi. «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da esa jamiyatda o'qituvchilik kasbining nufuzini yuksaltirish va ta'lim sifatini oshirish uchun yetarli shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

xizmatdan ajralmagan holda, bevosita joylarda malakasini oshirishni ta'minlash maqsadida masofaviy va mobil sayyor kurslarni o'tkazish amaliyoti joriy etildi. IIV Akademiyasining Kasbiy tayyorgarlik fakulteti ham tarkibiga qo'shilgan institutda maxsus besh oylik dastur asosida besh yo'nalishda kadrlar tayyorlanib, ularga «kichik serjant» unvoni hamda belgilangan namunadagi diplom beriladi.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida ta'lim muassasasida ichki ishlar organlarining 10 mingga yaqin ofitser, serjant va safdor xodimlari bilan uzluksiz karyera jarayoni tizimida o'quv-tayyorgarlik ishlari olib borildi. Bu xodimlarning malakasiga qarab xizmat bo'yicha o'sishini ta'minlash, shuningdek, rahbar kadrlarning in-



dalanib, tinglovchilarni har jihatdan kamol toptirish, mustaqil fikrlovchi, o'ziga xos qarashlarni ifoda eta oladigan, kreativ qobiliyatga ega xodimlarni tarbiyalash asosiy vazifalardan biridir. Ta'limda keng qo'llanilayotgan «binar darslar», «sayohat», «uchrashuv», «sayyor darslar» vositasida tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirishga, bilimi va qiziqishlarini oshirishga, ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishga erishilmoqda.

– O'quv adabiyotlarining yangi

avlodi yaratildi. Hozirda institut kutubxonasida 3 ming 255 nomdagi 20 ming 500 dan ortiq kitoblar bor bo'lib, elektron kutubxona fondida 100 mingdan ortiq xizmatga oid va boshqa adabiyotlar joy olgan, – deydi institut Axborot-resurs markazi boshlig'i, kichik serjant Mirjalol Qosimov.

Institutda pedagog kadrlar malakasini oshirish ham takomillashtirilib, xorijda malaka oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. O'quv mashg'ulotlarida esa interfaol



yuksaltirish hamda yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlaridan xabardorlik darajasini oshirish ham eng muhim vazifalarimizdan hisoblanadi.

Prezidentimizning 2021-yil 15-apreldagi «Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga asosan, ichki ishlar organlari xodimlarining

tellektual va professional salohiyatini yanada oshirish, barcha toifadagi ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat o'tashi va xizmat martabasi hamda uning butun muddati davomida uzluksiz tahsil olish va malaka oshirib borishiga erishish, doimiy ravishda xizmatdan ajralmagan holda, bevosita joylarda malakasini oshirishni ta'minladi.

Bugungi kunda innovatsiya ta'lim shakllaridan, texnologiyalardan foy-



panellar, planshet, bodikameralar hamda boshqa zarur texnikalardan foydalanilmoqda. Mashg'ulotlar amaliyot bilan uzviy bog'liq holda, shahar va viloyat ichki ishlar organlari bazalarida hamda boshqa turdosh tashkilotlarda o'tkazib kelinmoqda.

E'tiborli jihati institutda joriy etilgan onlayn va offlayn o'qitish platformasi yordamida xodimlar masofadan turib, xizmatdan ajralmagan holda ta'lim olishi hamda tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil



SOHA TAYANCHI

ravishda o'zlashtirish tartibi joriy etilgan. Shu bilan birga, institut mutaxassis xodimlari tomonidan masofaviy ta'limni tashkil etish yuzasidan ko'rgazmali videoroliklar tayyorlangan bo'lib, barcha zarur o'quv-metodik materiallar masofaviy ta'lim tizimiga joylashtirilgan.

Institutning ipkmvd.uz veb-saytiga ta'lim muassasasi hayotiga oid eng muhim ma'lumot va tadbirlar joylashtirib boriladi. Bundan tashqari, mt.ipkmvd.uz platformasi yaratilgan bo'lib, undan masofaviy ta'lim oluvchilar foydalanishlari uchun ma'ruza, test va slaydlar o'rin olgan. Shuningdek, institut kafedra va sikllari professor-o'qituvchilarining kasbiy faoliyati samaradorligini baholashning raqamli portfolio tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, «E-o'quv karyera» tizimi orqali vazirlik «E-kadr» tizimiga integratsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Kafedra va sikllardagi o'quv-metodik baza innovatsion o'qitishni amalga oshirishni nazarda tutuvchi blok-modulga asoslangan bo'lib, 33 ta o'quv dasturi, 46 dan ortiq o'quv-uslubiy majmualar tayyorlandi. Shu bilan birga, «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining axborotnomasi» ilmiy-amaliy jurnali yuridik va tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari hamda asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritildi. Ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari, mustaqil izlanuvchilari mazkur nashrda o'z maqolalarini o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etishmoqda.

Elektron tir majmuasi bir vaqtning o'zida 1000 dan ortiq tinglovchiga xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, institutda huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l-patrul va patrul-post xizmati bo'linmalari xodimlarini

«Fuqarolar bilan ishlash moduli» bo'yicha uzluksiz o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bu orqali ularning sohada samarali xizmat olib borishdagi shaxsiy mas'uliyati yanada oshiriladi.

Institutda xotin-qizlar kengashi, faxriylar kengashi, yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkiloti va boshqa jamoatchilik tuzilmalarining faoliyati ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Tinglovchilar muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishlari uchun turli sport to'garaklari tashkil etilgan. Ta'lim muassasasi shaxsiy tarkibi va tinglovchilari ishtirokida sambo, milliy kurash, futbol, tennis, voleybol, badminton bo'yicha sport musobaqalari o'tkazib kelinadi.

Albatta, bunday g'amxo'rlik va e'tiborga javoban tinglovchilar ham malakali ustozlar ko'magida yuqori



natijalarni qo'lga kiritib kelayotgani e'tirofqa sazovordir.

Masalan, shu yilning 5–10-sentabr kunlari Italiyaning Milan shahrida o'tkazilgan Butunjahon sport o'yinlarida qo'l jangi bo'yicha mamlakatimiz terma



jamoasi a'zosi, Kasbiy tayyorgarlik fakulteti tinglovchisi, safdor O'. Jumanova 75 kg vazn toifasida oltin medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek, 22–23-avgust kunlari Qirg'izistonning Cho'lponota

tashkilotlar hamda xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida malaka oshirish va tajriba almashish uchun xizmat safarida bo'lishdi.

Bundan tashqari, institut moddiy-texnik bazasini takomillashtirish maqsadida vazirlikning Xalqaro hamkorlik boshqarmasi bilan birgalikda BMT rivojlanish dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi, YEXHTning mamlakatimizdagi loyihalar muvofiqlashtiruvchisi, Janubiy Koreyaning KOICA, Turkiyaning TICA kabi xalqaro hamkorlik va muvofiqlashtirish agentliklarining vakolatxonalari hamda Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya kabi davlatlarning O'zbekistondagi elchixonalari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinyapti.

IIV hamda Koreya Milliy politsiya agentligi rahbariyatining o'zaro hamkorlik to'g'risidagi kelishuviga asosan, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi ko'magida institutda Simulyatsiya va modellash markazini yaratish bo'yicha 6 million AQSH dollariga teng miqdordagi loyiha ustida ish olib borilmoqda. Kelgusida mazkur loyiha doirasida ichki ishlar organlari xodimlarining bilim va malakalarini oshirish, o'quv treninglar tashkil etish hamda institutda barpo etilayotgan markazning imkoniyatlarini yanada mustahkamlash ko'zda tutilgan.

Nafsilamrini aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning dadil qadamlari o'z aksini topayotgan IIV Malaka oshirish institutida bilimlilar, ona Vataniga sodiq, xizmat burchini bajarishga mas'uliyat bilan yondashadigan, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni o'zining muqaddas burchi hamda asosiy majburiyati deb biladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Sherali ANVAROV,
podpolkovnik.
Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.





1 октябрь — Ўқитувчи ва мураббийлар кuni

ЁШ АВЛОД НИҲОЛ МИСОЛИ

Ўқитувчилар озода кийиниши, хулқи билан бошқалардан ажралиб туради. Интизомли, одобли, билимга чанқоқ болаларга «Ўқитувчининг фарзандими-сан?», дея савол беришганига ҳам кўп бор гувоҳ бўлганмиз.

ИИБ Ихтисослаштирилган мактаб-интернати олий тоифали ўқитувчиси, халқ таълими аълочиси Жаҳонгир Исмамовни ҳақли равишда ана шундай улугъ номни шараф билан эъзозлаб келаётган фидойи устозлардан бири, десак, муболаға эмас. Ўзининг камтарлиги, интилувчанлиги, асосийси, билими ва юксак педагогик маҳорати билан жамоада ҳурмат қозонган Ж. Исмамов уч йилдан буён мазкур таълим муассасасида ўқувчиларга география фанидан сабоқ бериб келмоқда.

Жаҳонгир Исмамов 2017/2018 ўқув йилида ўтказилган «Йилнинг энг яхши фан ўқитувчиси» кўрик-танловининг республика босқичида ғолибликни қўлга киритиб, «Халқ таълими аълочиси» кўкрак нишони билан тақдирланган. У, шунингдек, миллий ўқув дастури асосида яратилган 10-синф география дарслиги ҳамда ўқитувчилар учун методик қўлланма ҳаммуаллифи ҳисобланади. Қолаверса, Ж.Исмамов томонидан 5-6-7-8-9-10 синфлар кесимида тайёрланган география фанидан амалий машғулотлар бўйича услубий қўллан-



малар туркуми республика миқёсида оммалаштиришга тавсия этилганини айтиб ўтиш жоиз.

У ўтган йили ўтказилган педагог кадрлар учун мақсадли ўқув семинарида тренер сифатида иштирок этди. Шунингдек, ЮНЕСКОнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси

ҳамкорлигида ташкил этилган миллий форумда ҳам тренер сифатида қатнашиб, ташаккурнома билан тақдирланди. Бу ютуқлар унинг ўз соҳасининг етук мутахассиси эканидан дарак беради.

— Ёш авлод ниҳол мисоли,
— дейди Жаҳонгир Исмамов.
— Қайси томонга эгсангиз, шу

томонга бўй чўзади. Шу маънода, ўқувчиларга тўғри таълим бериш, уларни юрт равнақи ва фаровонлигини юксалтиришга қодир инсонлар этиб тарбиялаш ишига масъулият билан ёндашишимиз талаб қилинади. Ўқувчиларга дарс ўтиш жараёнида ҳаётий мисолларга таяниш унинг ўша фанга бўлган қизиқишини оширади...

Фидойи хизмат ҳеч қачон беиз кетмайди. Ж.Исмамовнинг ёш авлод таълим-тарбияси, илм-фан равнақи йўлидаги хизматлари муносиб эътироф этилди. У ўтган йили «Халқ таълими фидойиси» кўкрак нишони билан тақдирланди.

Жаҳонгир ўзининг педагогик фаолияти билан бирга, «Иқтисодий ва ижтимоий география» ихтисослиги бўйича «Ўзбекистон моношаҳарлари ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг омиллари, муаммолари ва истиқболлари» мавзусида география фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун илмий изланишлар олиб бормоқда. Бугунги кунга қадар хорижий ва республика илмий журналларида, конференциялар тўпламларида унинг ўндан ортиқ мақолалари, кўплаб тезислари чоп этилган.

Шерзод АБДУСАМАДОВ,
ўз мухбиримиз.

МУАЛЛИМ

Муаллим ҳақида сўзим ушбудир:
Муаллим камолот ичра кўзгудир.
Ўқидим Геродот, тарихни кўп бор,
Форобий, Дантени такрор ва такрор.

Барини ўқидим, лол қолди ақлим,
Барига устозсан ўзинг, муаллим.
Алишер қалбига солган сеҳр-файз
Сенсан, эй муаллим, устоз Абул-Лайс.

Қутлуғ хонадонда қутлуғ калом бу,
Ҳамид Олимжон бу, Фафур Фулом бу.
Буюк Темур сендан топгандир таълим,
Сен шундоқ, азиз зот, азиз муаллим.

Рост айтсам, ўзингсан энг аввал даҳо,
Сен ҳаёт ганжида дурри бебаҳо.
Улуғ айёмингда шеърий калом бу,
Шогирдлар номидан қутлуғ салом бу.

Абдулла ОРИПОВ,
Ўзбекистон Қаҳрамони,
халқ шоири.



Суратда: Хоразм вилояти ИИБ ММИ ва КБТ хизмати бош инспектори, подполковник Юлдуз Ҳамдамова Урганч шаҳридаги 5-умумтаълим мактаби ўқитувчилари даврасида.



✓ Ma'naviyat va ma'rifat darsi

O'ZBEKISTON – IJTIMOIY VA DUNYOVIIY DAVLAT

Mamlakatimizda inson, uning erkinligi, qadr-qimmat, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish, huquqiy demokratik davlat qurish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanish va o'zgarishlar muhim ahamiyatga ega.

Xalqimiz xohish-irodasi asosida qabul qilingan, yangilangan Konstitutsiyada ijtimoiy, huquqiy va dunyoviy davlatning barcha normalari aks ettirilgan. Xususan, Bosh qomusimizning birinchi moddasida: «O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat» deya belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy davlat – har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir.

Dunyoviy davlat – davlat hokimiyati va boshqaruvdan din ajratilgan, boshqaruv diniy qoidalar bilan emas, balki qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlat. Shuningdek, hech qanday din va mafkura davlatning majburluv kuchi bilan o'rnatilmasligini, ularning davlatdan ayri ekanligini tavsiflaydi.

Huquqiy davlat – demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo'lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlat. Qolaversa, qonun oldida barcha tengligi va hisobdordligi, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi asosida davlat o'z faoliyatini amalga oshirishi, fuqaro va davlat o'rtasida mas'ullik, inson huquqlari va erkinligi real ta'minlanganligidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan Konstitutsiyaning yangi tahriri bo'yicha referendum yakunlariga bag'ishlangan uchrashuvda **«O'zbekiston – dunyoviy davlat va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Xalqimizning referendum orqali bildirgan xohish-irodasi, qat'iy tanlovi ham shu!»** deya alohida ta'kidladi. Shu bilan birga, bundan buyon ham, millati, tili, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir



fuqaroning vijdon erkinligi ta'minlanishi; barcha diniy konfessiyalar erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilishi; mamlakatimizda millatlar va konfessiyalar o'rtasida totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash siyosati izchil davom ettirilishini qayd etdi.

Ijtimoiy va dunyoviy davlatning eng asosiy ustuni hamda ajralmas qismi qonun ustuvorligi sanaladi. Qonun birlamchi bo'lgan davlat o'z-o'zidan huquqiy davlatdir.

Kezi kelganda ta'kidlash joizki, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatorida, ichki ishlar organlari ham huquqiy davlatda qonun ustuvorligini ta'minlashda asosiy o'rin tutadi. Osoyishtalik posbonlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki himoya qilinishida, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashda kamarbasta bo'lmoqda. Xalq bilan tizimli manzilli muloqotni, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikni o'rnatish orqali aholining eng muhim muammolarini hal etishga har tomonlama ko'maklashmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnatga layoqatsizlar va keksalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish bo'yicha ham huquqiy normalar kiritilgan. Jumladan, 57-moddada: «Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar

hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidir» degan band mavjud.

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ijtimoiy himoya bilan bog'liq yangi tizim yaratildi. Xususan, kam ta'minlangan oilalarga nafaqa belgilash asoslari aniqlanib belgilandi. «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi ishga tushirilib, kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Keyingi paytda «Temir daftar», «Ayollar daftar», «Yoshlar daftar», «mahallabay» va «xonadonbay» ishlash tizimi amalga joriy qilinib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning munosib hayot kechirishlari uchun sharoit yaratish, aholi bandligini ta'minlash, daromadini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bugun yurtimizda aholining ehtiyojmand qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda ko'plab uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirildi. Turarjoyga bo'lgan talabni qondirish bo'yicha ayollar va yoshlarga, ehtiyojmand oilalarga subsidiyalar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi.

Ma'lumki, joriy yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahridagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasining umumsiyosiy munozaralari bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi



Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Prezidentimiz keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan va keng ko'lamli islohotlarga alohida to'xtalib, global va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surib, qat'iyat bilan shunday dedi: «Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo'lmish Yangi O'zbekistonni barpo etish siyosatini qat'iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz «Inson qadri va manfaatlarini uchun» degan ezgu g'oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo'lidan dadil bormoqda».

Asosiy qonunimizda millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning tengligi, inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi prinsiplariga sadoqat yana bir bor tasdiqlandi. Shu huquqiy asosda qabul qilingan «O'zbekiston – 2030» taraqqiyot strategiyasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'unidir.

«O'zbekiston – 2030» strategiyasining ishlab chiqilishini jamiyatimiz ravnaqi, yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligini ta'minlash, har tomonlama rivojlangan demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo qilish yo'lidagi islohotlarni yanada jadallashtirish borasida qo'yilgan muhim qadam deb baholash lozim. Bu yangi O'zbekistonda inson qadri, uning munosib hayot kechirishi har narsadan ustun ekanligining yorqin isbotidir.

Sarvar SOBIROV tayyorladi.



✓ *Лучшие в своем деле*

Екатерина ВОРОНИНА: «СПОРТ – ПОМОЩНИК В СЛУЖБЕ»

Мастер спорта международного класса (семиборье) младший сержант Екатерина Воронина достигает успехов и в службе, и на спортивной арене.

Екатерина Александровна родилась 16 февраля 1992 года в городе Ташкенте. Она легкоатлетка Узбекистана, специализирующаяся в многоборье. Данным видом спорта занимается уже 20 лет. Окончила Узбекский государственный университет физической культуры и спорта. В 2015 году была принята в ряды сотрудников ОВД. В данный момент служит в войсковой части № 7531 Караульных войск МВД Республики Узбекистан.

Первый тренер Ворониной – Елена Юрьевна Свечникова. Из всех кандидатов тренер выбрала ее, так как увидела упорство. Это качество – залог успеха в спорте. С первых дней посещения спортивной секции Екатерина начала усиленно тренироваться.

– Любовь к легкой атлетике мне привила первый тренер – Елена Юрьевна. Она преподавала физкультуру в нашей школе. На ее уроки мы бежали с большим удовольствием. Начинала

свою спортивную карьеру в легкой атлетике с метания копья, потом вместе с тренером решили, что нужно попробовать себя в многоборье. Таким образом, я оказалась у моего нынешнего тренера Павла Андреева. Сейчас проходим подготовку к соревнованиям в Китае, – делится спортсменка.

Нынешним летом Екатерина Воронина, выступавшая в женском многоборье, завоевала золотую медаль на чемпионате Азии в Таиланде. Чтобы стать лучшей, нужно было проявить себя в семи дисциплинах. Пробежать стометровку с барьерами, 200 и 800 метров без барьеров, выше всех прыгнуть в высоту и дальше всех в длину, отличиться в толкании ядра и метании копья.

Екатерина хорошо помнит свою первую победу на Азиатских играх в 2014 году в Инчхоне. Для нее она была очень знаковой.

На вопрос, что же помогает побеждать нашей героине, она отвечает так:



– У меня нет того стремления к победе и самолюбия, которые часто встречаются у спортсменов. Желание стать лучше, чем была вчера – стимулирует, дает толчок к новым достижениям. Победа такая молниеносная, ты ощущаешь эту эйфорию, стоя на пьедестале, слушая гимн своей страны, радуешься тому, что смогла оправдать труд тренера, поддержку родных, которые всегда верят в тебя.

– Службу считаю стабильным и почетным занятием, – делится младший сержант Екатерина Воронина. – Люблю свою работу и очень рада, что моя судьба неразрывно переплелась со службой в ОВД. Всегда готова поделиться опытом, знаниями.

Как любая неординарная личность в погонах, Екатерина старается с максимальной пользой для себя тратить свободное от

службы время. Среди увлечений – активный отдых, творческая реализация и саморазвитие.

– Спорт помогает больше и лучше работать. С его помощью можно развить необходимые в жизни качества характера. Образ жизни, связанный с постоянными тренировками, преодолением себя, – абсолютно привычное для меня дело. Спорт приносит удовольствие и может служить лучшим способом для снятия нервного напряжения, накапливающегося у людей, занимающихся такой сложной профессиональной деятельностью, как служба в органах внутренних дел, – говорит героиня нашего очерка.

Вместе с мужем Екатерины воспитывает дочь. Супруг тоже легкоатлет. В данное время он специализируется как тренер по функциональному многоборью. При этом успевает тренироваться и выступать на соревнованиях. Воронины – спортивная семья и они надеются, что их дочь тоже проявит себя в спорте.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.

✓ *Есть такая служба*

Службу в органах внутренних дел, пройдя в 1996 году подготовку в учебном центре ГУВД города Ташкента, Ш. Назиров начал в роте патрульно-постовой службы. За 27 лет у него не было ни одного замечания. Заместитель начальника ППС Янгихаётского района подполковник Джасур Абдуллаев всегда учил его работать добросовестно, вкладывать всю душу в свою профессию.

Шухрат Абдурахимович никогда не забывает слова своего наставника: «Будь справедливым по отношению к людям». Всегда придерживается этого правила. Каждый день старший сержант вместе с представителем махаллинского схода граждан «Навкирон» Янгихаётского района совершает обход вверенного участка, следит за тем, чтобы никто не нарушал общественный порядок.

Недавно в махалле в одной из семей случился скандал. Невестка поругалась со свекром, стала выгонять его из дома. Никто из представителей правопорядка и женских активисток не мог остано-



За самоотверженный труд командир экипажа первого отряда второго батальона бригады ППС Янгихаётского района столицы старший сержант Шухрат Назиров награжден нагрудным знаком «За отличную службу в органах внутренних дел» первой степени.

вить разгневанную женщину. Шухрат Назиров провел с ней профилактическую беседу, объяснил, что в возникшей ситуации она неправа. Женщина успокоилась, извинилась, пообещала, что больше этого не повторится.

Старший сержант на работе нередко остается допоздна. Во время обхода участка ничто не ускользнет из его взгляда. Как-то раз Назиров заметил, что у обочины дороги стоит припаркованная автомашина «Nexia». Решил проверить все ли в порядке. Интуиция не подвела его и в этот раз. В салоне автомобиля оказались разыскиваемые особо опасные преступники, угнавшие машину. Благодаря своей отличной физической подготовке он смог задержать и обезопасить преступников. При обыске так-

же были обнаружены наркотические вещества.

Наш герой очерка считает, что в жизни надо заниматься любимым делом, тогда выбранная профессия будет приносить радость.

– Требования к службе в органах внутренних дел серьезные, а потому всегда нужно быть готовым к любому уровню сложности. Здесь, наряду с физической подготовкой, очень важен моральный настрой и твердая внутренняя позиция. Доверие наших граждан – главное для нас. Люди ведь должны видеть не просто человека в форме, а человека грамотного, вежливого, внимательного и готового всегда прийти на помощь, – делится старший сержант Ш. Назиров.

Мардона БАХТИЯРОВА.



*1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni*

HAMON USTOZIMGA SUYANAMAN

O'shanda ilk bor tergov-tezkor guruhi tarkibida voqea joyiga chiqqandim. Kapitan Keldiyor Alibekov o'g'irlik sodir bo'lgan hududni lenta bilan o'rab chiqdi. So'ng eshik, derazalar hamda xonadagi jihoz va buyumlardan barmoq izi nusxalarini olib, ashyoviy dalillarni navbati bilan qadoqladi. Mazkur ishlarni amalga oshirish asnosida hodisa joyida ekspert-kriminalist qanday vazifalarni bajarishi kerakligini hijjalab tushuntirdi. Bu ustozimning ilk sabog'i edi.

Ertasi kuni barmoq izlarining yaroqlilarini ajratish hamda daktiloskopik bazadagi izlar bilan taqqoslashni o'rgatgandi. Mabodo ishim ko'ngildagidek chiqmasa, o'sha vazifani qayta-qayta bajarishga undardi. Shu tarzda Jizzax viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi eksperti, kapitan Keldiyor Alibekovning shogirdi sifatida sohaning nozik sirlarini o'zlashtira boshlagandim.

U nafaqat chuqur bilimi, balki samimiy hamda ochiqko'ngilligi bilan meni qoyil qoldirardi. Shu ma'noda

undagi ezgu xislatlarni o'zimga yuqtirishga astoydil intilganman. Nazarimda, Keldiyor aka ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yuritmagani-da, albatta, ajoyib o'qituvchi bo'lardi.

Yana uning hamma ishga ulgurishi bizni hayratga soladi. Chunonchi, navbatchiligining ertasi kuni voqea joyiga otlanganiga ko'p bora guvoh bo'laman. Shuningdek, ekspert-kriminalistlar o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish va qator yutuqlarni qo'lga kiritishning uddasidan chiqadi.



Jinoyatlarni fosh etish borasidagi muvaffaqiyatlari haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Tabiiyki, sa'y-harakatlariga yarasha IIV hamda viloyat IIB tomonidan ko'p bora faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan. Ko'ksini «Ichki ishlar organlarida

benuqson xizmatlari uchun», «A'lo xizmatlari uchun» ko'krak nishonlari bezab turibdi. Oilasi ham havas qilgudek. Farzandlaridan biri poytaxtdagi Bojxona institutida, boshqasi IIV Jizzax akademik litseyida ta'lim olayotir.

Hozirda Jizzax viloyati

IIB Ekspert-kriminalistika markazi bosh eksperti, podpolkovnik Keldiyor Alibekovning men kabi o'ndan oshiq shogirdlari bor. Shu ma'noda shaxsiy tarkibimiz 21 yillik tajribaga ega ustozimizni behad qadrlaydi. Xususan, men sohada neki yutuqqa erishgan bo'lsam, barchasida Keldiyor akaning his-sasi bor, deb o'ylayman. Hamon ustozimdan bilmaganlarimni so'rayman.

Dilafruz PARDAYEVA,
podpolkovnik.

Jizzax viloyati.

Suratda: Jizzax viloyati IIB bosh eksperti, podpolkovnik Dilafruz Pardayeva ustoz, podpolkovnik Keldiyor Alibekov bilan.

*Hamkasblarimiz haqida*

SPORTGA MUHABBAT VA KASBGA SADOQAT

Sambo bo'yicha jahon chempionatida 7 ta medalni qo'lga kiritgan yurtimiz terma jamoasi 19 ta ishtirokchi davlat vakillari orasida uchinchi o'rinni egalladi. Nufuzli musobaqada Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilganlar orasida sambo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi, Samarqand shahar IIOFMB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi katta mutaxassisi, mayor Mohina Yunusova ham bor edi.

Lavhamiz qahramoni 16 yoshidan buyon sport bilan shug'ullanadi. 2000-yilda u tahsil olayotgan Samarqand tumanidagi 21-maktabda sharq yakkakurashi bo'yicha «Siyovush» sport klubi ochiladi. Mohinaning otasi uzoq o'ylab o'tirmay, uni mashg'ulotlarga olib boradi. Yosh sportchi mamlakat chempionatidagi ilk ishtirokidayoq g'alaba qozonadi.

Mohina keyinchalik Olimpiya zaxiralari maktab-internatida mashg'ulotlarni davom ettirdi. 2005-yili dzyudo bo'yicha sport ustasi unvonini qo'lga kiritdi. 2006-yilda o'tkazilgan sambo bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida zafar quchadi.

Mohina Yunusova maktabni tamomlagach, uzoq yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilgan otasi



Suratda: Mohina Yunusova (o'rtada) jamoadoshlari bilan.

Mavzudin Yunusovga izdosh bo'lishga qaror qildi. Uning IIV Akademiyasiga muvaffaqiyatli qabul qilinishida sportdagi yutuqlari ham katta ahamiyat kasb etdi.

Mohina navbatdagi yig'in chog'ida Damir Muhidov bilan tanishib qoldi. Keyinchalik u bilan hayot yo'lini bog'ladi. Damir ham ichki ishlar organi xodimi, mayor, dzyudo bo'yicha sport ustasi. Er-xotinning qiziqishlari bir xil – sportga muhabbat va kasbga sadoqat.

Ular birgalikda uch nafar farzandni tarbiyalashmoqda. To'ng'ich o'g'ili Mahammadali Olimpiya zaxiralari sport kollejida tahsil oladi va sambo bilan shug'ullanadi. U yaqin-

da sambo bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi respublika musobaqasida ilk g'alabasini qo'lga kiritdi. Qizi Feride yengil atletika bilan shug'ullanadi. Oilaning kenjasi Farisa hali atigi 4 yoshda.

Mayor Mohina Yunusova joriy yilda o'tkazilgan «To'maris izdoshlari» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida «Yaradorlarni jang maydonidan olib chiqish» shartini tez va a'lo darajada bajarib, birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Bu bilan u chaqqonlik, chidamlilik borasidagi mahoratini yana bir bor namoyish qildi.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

✓ *Халолликни ишор қилган ходимлар*

ПОРА КАНДА БЎЛГАНДА...

Гуруч курмаксиз бўлмайди, деганларидек, орамизда кўра-била туриб қонунни четлаб ўтиб, айбини пора орқали беркитмоқчи бўлаётганлар ҳам йўқ эмас. Навоий вилояти ИИБ ЖХХ ЙХХБ 2-сафарбарлик гуруҳи ЙПХ инспектори, сафдор **Голиб Давронов** хизмат вазифасини бажариш чоғида ана шундай қоидабузарнинг қилмишига чек қўйди.

«Самарқанд» мунтазам ЙПХ масканида ўз вазифасини бажарётган сафдор **Голиб Давронов** давлат рақами Фарғона вилоятига тегишли юк машинасини профилактик текширув учун тўхтатди. Автомашинадан тушиб, ёш ҳайдовчи унга нима асосга кўра тўхтатганини сўраб ўдағайлади. Қўрқоқ олдин мушт кўтарар, деганлари шу бўлса керак-да. Қарангки, текширув давомида транспорт воситасини бошқариш учун ҳайдовчида тегишли ҳужжатлар йўқлиги аниқланди. Ва тегишли тартибда баённома расмийлаштирилиб, юк автомашинаси жарима майдонига жойлаштирилди.

«Пайтавасига қурт тушган» ҳайдовчи шу куннинг ўзида ЙПХ инспекторига аввалига 300 минг, кейин 500 минг сўм пора таклиф қилди. Сафдор

Голиб Давронов унинг бу ҳаракатлари қонунга зид эканини, бунинг учун қонуний тартибда жавобгарлик мавжудлигини тушунтирса-да, таклиф қийматини 1 миллион сўмгача кўтарди.

Шу кунни фарғоналик ҳайдовчи ЙПХ инспекторига пора бераётган пайтда ашёвий далиллар билан қўлга олинди.

Айни пайтда гумон қилинувчига нисбатан тегишли тартибда жиноят иши қўзғатилиб, дастлабки тергов ҳаракатлари олиб борилмоқда.

Сафдор **Голиб Давронов** йўл ҳаракати хавфсизлиги хизматида қарийб 10 йилдан бўён фаолият олиб боради. ЙПХ маскани автомобилларни синчковлик билан назорат қилиш унинг асосий вазифаси. Хизмат вақтида шубҳали кўринган автотранспорт воситаларини текшириш баробарида,



тарғибот-тушунтириш ишларини ҳам олиб боради.

– Коррупцияга нафақат ички ишлар органи ходимлари, балки барча ҳамюртларимиз «йўқ» деб жавоб бериши уларнинг юрт равнақига қўшган энг биринчи ҳиссасидир, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Халқимиз касбига садоқат билан, ҳалол хизмат қиладиган мард ўғлонларига суянади.

Жамият учун ижтимоий хавфи юқори ва оғир оқибатларга олиб келувчи жиноятлардан бири порахўрликдир. У адолатни яқсон қилибгина қолмай, бошқа бир жиноятлар содир этилишига йўл очиб бериши мумкин. Шу боис бу иллатдан нари юриш керак.

Маҳлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Навоий вилояти.

✓ *Кинология хизмати*

«БАЙКАЛ» БИЛАН ДЎСТМИЗ – дейди сафдор Бобуржон Ўрмонов



Хизмат итининг из ортидан адашмай бориши кўплаб жиноятларни фош этишда қўл келади. Одатда из жиноят содир бўлган жойда узоғи билан бир соат қолиши мумкин экан. Шунинг учун воқеа жойига тергов-тезкор гуруҳи таркибида кинологларнинг етиб бориши муҳим саналади. Ҳуқуқбузар қолдирган излар ортидан тушиш ва уни йўқотмасликда кинологларнинг тўрт оёқли ёрдамчилари хизмати катта бўлади.

ходимлар томонидан шу ондаёқ қўлга олинди ва қилмишига иқдор бўлиб, ўғирланган нарсаларни қаерга беркитганини кўрсатди.

Бобуржон Ўрмонов Кинология бўлинмасида қарийб уч йилдан буён хизмат қилади. Гуруҳ командири, катта сержант Санжар Мусаев унга устозлик қилиб, хизмат итлари билан ишлашни ўргатган.

– Соҳани ўрганаётганимда менга бир кучукчани бириктиришди. Унга «Байкал» деб исм қўйдим, – дейди сафдор

Б.Ўрмонов. – Унга ҳамма нарсани ўзим ўргатдим, биргаликда кўп машқ қилдик, кинология ишини ўзлаштирдик. Ўшандан буён у билан биргамиз. Кўп марта жиноят содир бўлган жойларга чиқдик, бир қанча жиноятларни «иссиқ изида» фош этдик. «Байкал» билан дўстмиз. Бу жониворни менсимай, унга ақл йўқ бир ҳайвон сифатида қарасангиз, ҳеч қачон сизга кулоқ солмайди. Унга меҳр, ғамхўрлик керак.

Борис КЛЕЙМАН,
ўз мухбиримиз.

Яқинда «102» қисқа рақамга Андижон шаҳрининг «Кўмирчи» маҳалласида яшовчи тадбиркор кўнғироқ қилиб, номаълум шахс хонадон аъзоларининг йўқлигидан фойдаланиб, уйга кирган ва телевизор, дрель, пармалаш каби асбобларни ўғирлаб кет-

ганлигини маълум қилган.

Вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлинмаси кичик инспектор-кинологи, сафдор **Бобуржон Ўрмонов** ҳамда унинг «Байкал» лақабли хизмат ити бўлган тергов-тезкор гуруҳи воқеа жойига зудлик билан етиб борди. Кўп ўтмай

«Байкал» бир изни олиб. Тезкор ходимларни жиноят содир этилган жойдан унча узоқ бўлмаган бир хонадонга бошлаб борди. Дарвозани тақиллатишганди, бир киши чиқиб келди. Ит етаклаган ходимларни кўрган заҳоти қочишга уринган жиноятчи тезкор





Урок духовности и просвещения

УЗБЕКИСТАН – СОЦИАЛЬНОЕ И СВЕТСКОЕ ГОСУДАРСТВО

Реформы, проводимые в стране, направлены на обеспечение прав, свобод и интересов человека, построение свободного, справедливого гражданского общества и правового государства.

В обновленной Конституции, принятой на основе всенародного референдума, отражены нормы, характеризующие социальное, правовое и светское государство. В статье первой Основного закона указано, что «Узбекистан – суверенное, демократическое, правовое, социальное и светское государство с республиканской формой правления».

Правовое государство – это государство, в котором все равны и ответственны перед законами, принятыми на основе демократических принципов. В нем установлены верховенство закона, разделение властей, взаимная ответственность личности и государства, защита прав и свобод человека.

Социальное государство – это модель государства, направленная на справедливое распределение материальных благ в соответствии с принципами социальной справедливости в целях достижения достойного качества и уровня жизни каждого гражданина, смягчения социального неравенства и помощи нуждающимся.

Светское государство – это государство, в котором религия отделена от государственной власти и управления, управление осуществляется не по религиозным правилам, а по гражданскому праву, принимаемые решения не основываются на религиозных принципах. Установлено, что никакая религия или идеология не устанавливаются принудительно. В светском государстве религия хотя и отделена от государства и политики, но не отделена от общества.

Функции социального государства заключаются в поддержке социально незащищенных или нуждающихся граждан, борьбе с безработицей, помощи предпринимателям, обеспечении устойчивого роста занятости и доходов населения, доступа к образованию, здравоохранению, социальным услугам, духовному и культурному развитию, смягчению социального неравенства в обществе, создании достойных условий жизни за счет перераспределения благ.

Признаки социального государства:

- качественное образование, квалифицированное и приемлемое медицинское обслуживание;
- социально ориентированная экономика;
- развитое гражданское общество;
- разработка и реализация социальных государственных программ;

утверждение целей государства по обеспечению достойных условий жизни для всех, социальной защищенности и равных стартовых условий для самореализации личности; социальная ответственность перед гражданами;

высокие выплаты в социальную сферу;

развитая система регулирования общественной жизни;

наличие социальных выплат из бюджета и государственных систем социальной защиты, социального обеспечения и занятости;

доступность социальной поддержки для всех без исключения нуждающихся членов общества;

принятие государством ответственности за благополучие граждан.

На встрече, посвященной итогам референдума по Конституции в новой редакции, состоявшейся с участием руководителей палат Олий Мажлиса, политических партий, судебных и правоохранительных органов, представителей общественности, Президент



Шавкат Мирзиёев подчеркнул, что Узбекистан – светское государство, каковым и останется. Это – желание и твердый выбор нашего народа, высказанные на референдуме.

Руководитель страны отметил, что и впредь будет последовательно продолжена политика по обеспечению свободы вероисповедания граждан независимо от национальности, языка, религиозной принадлежности и социального происхождения, будут созданы необходимые условия для свободной деятельности конфессий, обеспечено единство и мирное сосуществование наций и конфессий. Президент подчеркнул, что в обществе не допускается никакая



радикализация, использование религии в политических целях.

Основной опорой социального и светского государства является верховенство закона. Государство, где главенствует закон, и есть правовое государство.

Наряду с другими правоохранительными органами, органы внутренних дел играют важную роль в обеспечении верховенства закона. Они стоят на страже прав, свобод и законных интересов граждан, защищают имущество физических и юридических лиц, охраняют безопасность личности, общества и государства. Посредством диалога с народом, уста-

ся семей и оказание им адресной помощи.

За последние годы внедрены «железная», «женская» и «молодежная» тетради, налажена работа по принципам «махаллабай» и «хонадонбай». Серьезное внимание уделяется обеспечению занятости населения, предоставлению гражданам источников дохода, сокращению безработицы и бедности.

Жилищный вопрос долгое время оставался самой острой проблемой населения. Для ее решения за последние годы кардинально возросли темпы строительства жилья, для неплатежеспособных и нуждающихся граждан предоставляются субсидии на его приобретение.

Разработка и принятие Стратегии «Узбекистан-2030» стали еще одним важным шагом, логическим продолжением масштабных реформ, направленных на построение Нового Узбекистана, обеспечение мира и благополучия, повышение уровня жизни народа.

19 сентября в Нью-Йорке состоялась 78 сессия Генеральной Ассамблеи Организации Объединенных Наций. На ней с речью выступил Президент Республики Узбекистан. Остановившись на масштабных реформах, проводимых в стране, глава государства выдвинул ряд инициатив, направленных на решение актуальных проблем глобальной и региональной повестки. Президент твердо заявил, что будет решительно продолжена политика построения Нового Узбекистана, правового, светского, демократического и социального государства. Что кардинальные реформы по укреплению демократии и справедливости, осуществляются на основе благородной идеи «За достоинство и интересы человека».

В этой связи стоит особо отметить, что обновленная Конституция и Стратегия «Узбекистан-2030» полностью соответствуют Целям устойчивого развития Организации Объединенных Наций.

Соб. корр.





1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni

MUVAFFAQIYATLARIM KALITI

Ustozim, Oqoltin tumani IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Ibrohim Musurmonovda bir insonda bo'lishi kerak bo'lgan barcha ezgu xislatlar mujassamligiga amin bo'lganman. Oqko'ngil, qat'iyatli, e'tiborli, mas'uliyatli.

Mahallada profilaktika inspektori vazifasida ilk xizmatimni boshlagan kunimdayoq oilaviy nizoga duch keldim. Universitetni endigina bitirgan yosh xodimga ayol huquqlarini himoya qilish anchayin murakkabdek tuyuldi. Ikkilanib qoldim. Ming istihola bilan Ibrohim akaga qo'ng'iroq qildim. Rahbar odam bo'lsa, ishi ko'p, qanday qabul qilar ekan, degan o'yni ustozning go'shakning narigi tomonidan:

— Parvo qilma, hozir yetib boraman, — degan so'zi tarqatib yubordi.

O'n besh daqiqa o'tmay mayor Ibrohim Musurmonov yetib keldi. Og'ir-bosiqlik bilan er-xotin mojarosini bartaraf etdi. Ularga hayotiy saboq berarkan, menga oqil inson rahbar etib tayinlanganini tushundim.

Ibrohim aka nafaqat meni, balki barcha yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashga alohida e'tibor qaratadi. Xodimlarni intizomli

bo'lishga, o'z ustida ishlashga, odamlar bilan xushmuomala bo'lishga chaqiradi, ichki ishlar organi xodimi barchaga o'rnak bo'lishi kerak, deya ko'p ta'kidlaydi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida o'z tajribasini o'rtoqlashib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Ayniqsa, u kishining «jinoyat ham kasallikday gap, vaqtida oldini olish kerak», degan gaplari hamisha qulog'im ostida jaranglaydi. To'g'risi ham shu. Jinoyat sodir etilgach, uning oqibatlarini bartaraf etish uchun juda ko'p sa'y-harakat kerak bo'ladi.

Ustozning yo'l-yo'rig'i bilan mahallada profilaktik tadbirlarni kuchaytirdim. Sport, ma'naviy-ma'rifiy bellashuvlar, davra suhbat-

lari tashkil etdik. Jinoyatga moyil shaxslar bilan alohida ishlay boshladim. Natijada mahallamizda birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

Ibrohim aka oilaviy ahvolim bilan ham doim qiziqib keladi. Hatto Mirzaobod tumanidagi xonadonimizda bo'lib, bir necha bor ota-onam bilan suhbatlashib, sharoitim bilan

tanishgan. Odamlar orasida o'zimni qanday tutish borasida qimmatli maslahatlarini bergan. Mana shu sa'y-harakatlarning o'zi men uchun muvaffaqiyatlar kaliti vazifasini bajar-moqda.

Zokir QARSHIBOYEV,
leytenant.

Sirdaryo viloyati.



Ijtimoiy profilaktika

BARCHASI INSON QADRI UCHUN

So'nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga manzilli ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Bu borada ichki ishlar organlarida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, vazirlik JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati tarkibida tashkil etilgan Ijtimoiy profilaktika bo'limi 3-sektorlarda maxsus daftarlarga kiritilgan shaxslarning muammolari hal qilinishi, fuqarolarning bandligi ta'minlanishi, murojaatlarning sifatli ijro etilishini muvofiqlashtirishdan tashqari, «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyilini amalga joriy etish doirasida ijtimoiy profilaktikani tashkil etish bilan ham shug'ullanmoqda.

Hozirgi paytda respublika 3-sektorlari hududida 2408 ta mahalla mavjud. Ushbu mahallalarda 9 milliondan aholi istiqomat qiladi. Aholining 6289 nafari nogironligi bo'lgan shaxslar, 3078 nafari yakka-yolg'iz yashovchi keksalardir.

Ta'kidlash joizki, joriy yilning dastlabki 8 oyi davomida 3-sektorlarda «Yoshlar daf-tari»ga kiritilgan yigit-qizlardan 60625 nafarining muammolari

hal qilinib, sektor rahbarlari tomonidan yordam ko'rsatildi. Shuningdek, «Ayollar daftari» 4-bosqichiga kiritilgan ayollarning qariyb 90 foiziga yordam ko'rsatilgan bo'lsa, «Temir daftar»dagi oilalardan 162 521 tasining muammolariga ijobiy yechim topdi. Eng

muhimi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning salkam 186 ming nafar mehnatga layoqatli a'zosi hokimliklar, bandlik va boshqa tashkilotlar hamkorligida ishga joylashtirildi.

Ehtiyojmand, nogironligi bo'lgan fuqarolar, yakka-yolg'iz yashovchi keksalarni qo'llab-quvvatlash doimiy e'tiborda. Joriy yilning 8 oyi davomida ana shunday toifadagi fuqarolarning

30 nafariga yangitdan uylar qurib berilgani, 478 nafarining uylari ta'mirlangani, 946 nafari tikuv mashinalari, 220 nafari payvandlash uskunolari, 458 nafari pishiriq pechlari, 109 nafari sartarosh uskunolari, 515 nafari nogironlik aravachalari, 1101 nafari boshqa asbob-uskunalar bilan ta'minlangani buning tasdig'idir. Bulardan tashqari, 884 nafar kishiga davolanish uchun moddiy yordam pullari,

1887 nafariga davolanish uchun yo'llanmalar berildi.

«Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish borasida ham ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Profilaktika inspektorlari tomonidan «xonadonbay» va «fuqarobay» o'rganish ishlari olib borilib, ijtimoiy profilaktika obyektlari hisoblangan 348149 nafar shaxs aniqlandi. Ularga nisbatan xulosalar tuzilib, manzilli ishlash uchun tegishli mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchilariga taqdim etildi. «Mahalla beshligi» tomonidan xulosalar bo'yicha ijtimoiy profilaktika obyekti hisoblangan 198821 nafar shaxsning muammolarini ijobiy hal etish choralari ko'rildi.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari tomonidan aholining yordamga muhtoj, ehtiyojmand qatlamlari bilan ham olib borilayotgan avvalo manzilli ishlar fuqarolarga munosib yashash sharoitini yaratib berish, inson qadri yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Muslim ABDIRASULOV,
kapitan.





Соҳавий хизматларда

ХОРИЖЛИКЛАР ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАНМОҚДА

Сурхондарё вилояти Термиз тумани ҳудудида, Амударёнинг ўнг қирғоғи бўйлаб қарийб 10 гектар майдондаги эски Термиз шаҳристонлари билан бир кенгликда «Чингизтепа» ёдгорликлари жойлашган. Бу ерда даставвал энг қадимги бинолардан бири – Кичик Чингизтепа қурилган бўлиб, унинг милoddан аввалги III–II асрларга оид экани айтилади.



Ҳозирда «Чингизтепа» ёдгорликлари ўзбек-француз қўшма археологик экспедицияси таркибиде франциялик олимлар – Селигент де Понтбреант, Пьер Релиш, Оливьер Бардолар илмий изланишлар олиб бормоқда. Вилоят ИИБ Хавф-

сиз туризмни таъминлаш бошқармаси ходимлари хорижлик археологларга нисбатан содир этилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олиш мақсадида профилактик ишларни амалга ошириб келмоқдалар.

Айтиш керакки, жорий йил бошидан бери бошқарма жамоат тартибини сақлаш гуруҳи инспекторлари томонидан хорижлик сайёҳларга 512 марта турли хизматлар кўрсатилган. Шу билан бирга, 676 та маъмурий ҳуқуқбу-



зарлик бўйича баённомалар расмийлаштирилиб, туризм намоиши объектлари атрофида яшовчи профилактик ҳисобда турадиган шахслар билан суҳбатлар ўтказилган.

Яқинда бошқарма ташаббуси билан Термиз давлат университети иқтисодиёт ва туризм факультети талабалари иштирокида «Сангардак» экотуризм объектида «Тозалик акцияси» тадбири

ўтказилди. Унда талаба ёшлар билан биргаликда сўлим гўша ортиқча чиқиндилардан тозаланди. Албатта, бу каби тадбирлар аҳолида экологик маданиятни шакллантириш, туризм объектларини асраб-авайлаш ҳиссини уйғотишга хизмат қилади.

Акбар МАВЛОНОВ,
капитан.

Сурхондарё вилояти.



Фидойи ходимлар

БИЛИМ ВА ТАЖРИБАМНИ ЯНА БИР БОР СИНОВДАН ЎТКАЗДИМ

– дейди профилактика катта инспектори, майор Жамшид Эргашев

Чиноз туманидаги «Чорвадор» маҳалла фуқаролар йиғини криминоген вазият бўйича тумандаги мураккаб ҳудудлардан бири эди. Турли ижтимоий муаммолар аҳолини қийнаб келар, ҳуқуқбузарлик ва жиноятлар кўп содир этиларди. Ўтган йилнинг март ойида мазкур ҳудудга профилактика катта инспектори этиб тайинланган тажрибали ходим – майор Жамшид Эргашевнинг саъй-ҳаракатлари натижасида вазият ижобий томонга ўзгара бошлади.

У муқаддам судланганлар билан алоҳида профилактик ишлар олиб борилиб, аксариятининг бандлиги таъминланди. Кечки ва тунги пайтлар мунтазам рейдлар ўтказиш одат тусига кирди. Натижада тунги вақтда маст ҳолда ҳамманинг тинчини бузадиган кимсалар тартибга чақрилди. Бекорчилик туфайли маҳаллада безорилик қилиб юрадиган

5 киши маъмурий жавобгарликка тортилди. Эътиборлиси, илгари кечалари одамларнинг уйидан чорва моллари кўплаб ўғирлаб кетиларди. Бу жиноятларга ҳам барҳам берилди. Умуман, қисқа вақт ичида ҳудудда жиноят ва ҳуқуқбузарликлар сони кескин камайишига эришилди.



Бугун «яшил» тоифага киритилган маҳалла тинч, осойишта. Ҳамма ўз юмуши билан банд. Бемақсад юрган бирор кимсага кўзингиз тушмайди. Шу сабабли маҳалла аҳли профилактика инспекторининг хизмат фаолиятидан мамнун эканлигини яшириб ўтирмайди.

– Жамшидбек турли тадбирларда, тўй-маросимларда ҳам фаол қатнашиб, ҳамманинг ҳурматида сазовор бўляпти, – дейди маҳалла фуқаролар йиғини раиси Шорасул Шораҳмедов. – Шунингдек, фуқаролардан келиб тушаётган ариза ва шикоятларни ҳам ўз вақтида, ҳолисона кўриб чиқиб, қонуний тарзда ҳал этмоқда.

Айни пайтда ҳудуддаги 563 та хонадонда 2560 нафардан ортиқ турли миллат ва элат вакиллари умргузаронлик қилади. Аҳоли асосан деҳқончилик ва чорвачилик билан машғул. Маҳалла ҳудудида 2 та мактаб, 1 та мактабгача таълим ташкилоти мавжуд. 2 та болалар майдончаси, маҳалла гузаридида новвойхона, гўзаллик салони ва тикув цехи фаолият кўрсатяпти. Маънавият ва маърифат хонаси кўплаб адабиётлар билан таъминланган.

– Бу ҳудуддаги хизмат фаолиятим давомида билим ва тажрибамни яна бир бор синовдан ўтказдим, – дейди ҳудуд профилактика катта инспектори, майор Жамшид Эргашев. – Маҳалла фаоллари, жамоатчилик вакиллари билан яқин ҳамкорлик ижобий натижаларга эришишда катта аҳамият касб этди.

Лавҳамиз қаҳрамони спортнинг энгил атлетика, каратэ ва қўл жанги турлари билан мунтазам шуғулланиб, ўзини чиниқтириб боради. Боси, ички ишлар органларининг ҳар бир ходими жисмоний тайёргарлиги юқори бўлиши муҳим.

Майор Ж.Эргашев бугунги кунда турмуш ўртоғи Хуршидаҳон билан 3 нафар фарзандни тарбиялаб, вояга етказмоқда. Фарзандлари келажакда унга ўхшаган жонкуяр инсон бўлиб, юртимиз равнақи ва тинчлиги йўлида хизмат қилиш ниятида. Оиладаги бирдамлик ва тоувлик эса осойишталик посбонига куч-ғайрат бағишлайди.

Михли САФАРОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент вилояти.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

✧ 1 октября — День учителя и наставника ✧

БЫТЬ ПЕДАГОГОМ — БОЛЬШОЕ СЧАСТЬЕ

В Узбекистане отношение к учителям и наставникам всегда было особым. Представителей этой профессии безмерно уважали, ценили их тяжелый труд и самоотверженную заботу о юном поколении. Сегодня эти традиции отношения к учителям и наставникам преумножаются.

Задачи, которые ставит перед собой педагог, — давать ребятам фундаментальные основы, зажигать в них желание самим добывать эти знания и связывать изученный материал с жизнью, воспитывать чувство бережного отношения к природе, толерантности, патриотизма. Профессия учителя по-прежнему самая востребованная и уважаемая в обществе!

— Я счастливый человек, потому что преподаю замечательный предмет — узбекский язык и литературу, — говорит О. Исроилова. — Вижу, как растут дети, крепнут физически и нравственно, любят свою Родину. Доброта, милосердие, честность, порядочность, любовь к Отчизне, восхищение ее историей — качества, которые воспитывает учитель, преподающий родной язык и литературу.




На снимке: учитель узбекского языка и литературы Андижанского академического лицея МВД Одинахон Исроилова с учащимися 2-го курса Асадбеком Вахобовым и Сарвиноз Умаровой.

— Наставничество — не только почетная миссия, но и дополнительная нагрузка и предполагает большую ответственность. Институт наставничества — важное и полезное направление на службе в органах внутренних дел. Обучая молодых сотрудников, понимаешь, что их ошибки — это наши ошибки. Этому, в свое время, меня учили мои наставники. Всегда необходимо помнить о том, что иногда по одному человеку судят о структуре в целом. А потому не оправдать оказанное нам доверие мы просто не имеем права. Именно всему этому и должен научить наставник, — делится заместитель начальника по духовно-просветительской работе ОВД Гузарского района подполковник Алимардон Рахимов.



На снимке: заместитель начальника по духовно-просветительской работе ОВД Гузарского района подполковник Алимардон Рахимов со своим учеником старшим инспектором группы по обеспечению кадрами капитаном Нодиром Рузиевым.



— Быть учителем для меня — значит быть счастливым человеком, постоянно стремящимся ко взаимопониманию с учениками, быть личностью с богатым внутренним миром и неиссякаемой жизненной энергией. В своей работе я стараюсь уважительно относиться к ученикам, воспринимать серьезно, пробудить в них желание стать лучше, помочь познать новое, — говорит учитель математики Самаркандского академического лицея МВД Музаффар Джураев.

На снимке: учитель математики Самаркандского академического лицея МВД Республики Узбекистан Музаффар Джураев с учащимися 2-го курса Азимом Атамуродовым и Настарин Мардоновой.



— Мне очень повезло с наставником — майором Уткиром Самиевым. Он старший товарищ, человек, подающий пример. Тот, кто указывает путь, делится бесценным опытом, — говорит инспектор профилактики ОПП СОБ ОВД Пешкунского района лейтенант Улугбек Давронов. — Меня переполняет гордость, что он так же является моим коллегой. Есть на кого равняться, совершенствоваться и стремиться к лучшему. Мы служим бок о бок уже более двух лет. В коллективе к Уткиру Самиеву многие обращаются за советом. Он всегда найдет время, подскажет, направит.

На снимке: старший инспектор профилактики ОПП СОБ ОВД Пешкунского района майор Уткир Самиев с учеником лейтенантом Улугбеком Давроновым.



*Хавфсиз маҳалла — хавфсиз жамият*

БИРЛАШГАН ЎЗАР

Азалдан маҳалла миллий қадриятларимиз, урф-одатларимиз, юксак инсоний тамойилларга асосланган фазилатлар бешиги бўлиб келган. Шу боис халқимиз орасида «Бир болага етти маҳалла ота-она» деган ибора бежиз айтилмайди.



Кейинги йилларда криминоген вазиятни барқарорлаштириш, жиноятчиликни жилашда маҳалла институти имкониятларидан кенг фойдаланилиб, ижтимоий профилактика тадбирлари кенг қўлланилмоқда. Айниқса, бу борада «маҳалла бешлиги»га бир қанча вазифалар юклатилиб, улар томонидан «Ҳар бир хонадон, ҳар бир оила» тамойили асосида ишлар амалга оширилмоқда. Лекин жиноятчилик билан курашиш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси содда жараён эмас. Бу борада етарлича билим, салоҳият, услубга эга бўлиш муҳим.

ИИБ ЖХД Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизмати ҳамда Сирдарё вилояти ИИБ ҳамкорлигида ташкил этилган ўқув-семинарда асосий эътибор маҳалла раиси, хотин-қизлар фаоли, ҳоким ёрдамчиси, ёшлар етакчиси ва профилактика инспекторларининг бу борадаги ҳуқуқий, услубий тайёргарлигини оширишга қаратилди. Қарийб барча туман-шаҳарларда бўлиб ўтган тадбирларда аҳолининг ижтимоий муаммоларига ижобий ечим топиш, жиноятнинг вужудга келишига олиб келадиган муҳитни соғломлаштириш, ҳуқуқбузарликдан жабр кўриши эҳтимоли мавжуд оилага оид турли сценарийлар кўриб чиқилди. Масаланинг ҳуқуқий, психологик, ижтимоий жиҳатлари таҳлил қилинди. «Хавфсиз маҳалла» тамойилининг хусусиятлари тушунтирилди.

Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,
ўз мухбиримиз.

Сирдарё вилояти.

*Эҳтиёт бўлинг: фирибгар!*

ҚИНҒИРЛИК АРАЛАШГАН ИШДА...

Фирибгарлик йўли билан бировнинг чўнтагидан пул олиш аввало, виждонга тупуриш, қолаверса, алдов санъатини пухта эгаллашдир. Мазкур фикримизга Жиззах вилояти Шароф Рашидов тумани «Зиёкор» қишлоқ фуқаролар йиғинида яшовчи С.М. ва унинг ҳамтовоқлари бошидан кечган воқеалар яққол мисолдир.

С.М. салоҳиятли бухгалтер бўлгани учун бир неча йил илгари банкда ишлайдиган таниши ундан айрим ҳужжатларни юритишда кўмак сўрайди. Танишига ёрдам бериш асносида банк амалиёти бўйича яхшигина малака тўплайди. Аммо аёл бу тажрибасидан жиноят йўлида фойдаланишни маъқул кўриб, муайян ҳақ эвазига фуқароларга сохта ҳужжатлар асосида кредит чиқаришнинг ҳадисини олди.

Табиийки, ноқонуний хатти-ҳаракатлари ошкор бўлмасдан қолмади. Аммо ҳар сафар иш судга етганида ҳомиладор бўлар ва унга жазони очикда ўташ билан боғлиқ ҳукм ўқиларди. Қайта-қайта судланган бўлишига қарамай, С.М. хулоса чиқармади. Аксинча, 2022 йилнинг октябрь ойида банклардан онлайн микроқарз олишга ихтисослашган 4 кишилик жиноий гуруҳ тузди.

Жиноий гуруҳ фаолиятида Шароф Рашидов туманининг «Истиқлол» маҳалласида яшовчи Ш.А. муҳим ўрин тутган. Муқаддам солиқ тизимида фаолият кўрсатган бу инсон



ижтимоий тармоқ орқали ҳеч қаерда ишламайдиган фуқаро ни банд, яъни иш ҳақи оладиган шахс сифатида кўрсатишнинг йўлини қила олади. Қолаверса, анчагина тадбиркорлик субъектларининг бухгалтерия ишларини бажарганлиги учун 100 дан ортиқ электрон имзо ва уларнинг паролларидан фойдаланиш имконига эга бўлган. Гуруҳнинг қолган аъзолари микроқарз олиш истагида бўлганларни қидириб топишган.

Эътиборлиси, қарз олувчиларнинг ҳеч бири банкдан



чиққан пуллари тўғридан-тўғри қўлларига олишмаган. Чунончи, пул гуруҳ аъзолари қўлидаги банк пластик картасига келиб тушган. Сўнг нақдлаштирилиб, «мижоз» сўраган микдордаги маблағ унга берилган. Бундан ташқари, қарзни олиб бериш харажатлари, дея 4 миллион сўм ушлаб қолинган.

Томонларнинг келишувига кўра, ҳар ким ўзи олган пулни банкка қайтариши керак эди. Аммо қайси фирибгар гапида турган, банк 30-40 миллион сўм қарз олгансан, дея ми-

жозни безовта қила бошлагач, фуқаро чув тушганлигини англаб, жиноятчилардан бирига мурожаат қилган. Ўз навбатида, жабрланувчининг кайфиятига кўра қарзнинг бир ойлик қисми сўндирилган ёки сабр қилиб турса, ҳаммаси жойига тушиб кетиши тушунтирилган.

Улар шу тариқа қирққа яқин кишининг номига 500 миллион сўмдан ортиқ микроқарз олишнинг уддасидан чиққанлар. Мазкур жиноятлар тоқати тоқ бўлган фуқаролардан бирининг ички ишлар органига мурожаати асосида фош бўлди. Гумонланувчилар дастлаб ҳеч нарсани бўйинларига олишмади. Хусусан, юзлаштириш чоғида «Бу одамни биринчи марта кўриб турибман», дейишдан нарига ўтмадилар. Лекин банк пластик карталаридаги пулларнинг ҳаракатига кўра гуруҳ аъзоларининг айби исботланди.

Демоқчи бўлганимиз, фуқаролар соддалик қилмаганларида, қонуний йўл тутганларида ўзларига бу тахлит ташвиш орттирмаган бўлишарди. Қисқаси, қинғирлик аралашган ишда барака бўлмайди.

Ғайрат АЛИҚУЛОВ,
подполковник.
Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.

Жиззах вилояти.





Тарихдан тариқча

ЎЛЖОЙ ТУРКОН ОҒА

ёхуд икки ўт ўртасидаги малика

Амир Ҳусайн Мовароуннаҳр тахти учун асосий даъвогар бўлиб турган бир дамда унга ишончли суянчиқ лозим бўлган ва бундай номга барлос уруғидан бўлган Тарағай Баҳодирнинг ўғли Темур энг муносиб номзод сифатида эътироф этилган. Икки ўртадаги иттифоқни мустаҳкамлаш учун никоҳ энг мақбул чора ҳисобланган. Темур ва Амир Ҳусайн иттифоқини мустаҳкамлашга амирнинг синглиси Ўлжой Туркон оға сабабчи бўлган.

КИРОЙИ КУЁВ

Бу иттифоқнинг келажаги порлоқ бўлишини Мовароуннаҳр ҳукмдори, Амир Қозағон олдиндан кўра билган. Шу боис Тарағай Баҳодирнинг ўғлига суюкли набираси Ўлжой Турконни никоҳлаб берган. Набирасига сеп сифатида йигирма уор туя ва от ҳамда қирқ отар кўй қўшиб берган. Бундан ташқари, тўйга совға-салом сифатида қимматбаҳо гиламлар, уй-рўзғор анжомлари ва бошқа нодир буюмлар тўхфа этилган. Амир Ҳусайн эса синглисига тилла зеб-зийнатлар ҳадя қилган.

Қозағоннинг севимли куёвиги айланган Темур Мовароуннаҳр ҳукмдорини бир неча бор хавф-хатардан сақлаб қолган ва бунинг эвазига Қозағон барлос уруғидан бўлган бекни Шибирғон шаҳрининг ҳокими этиб тайинлаган. Шу тариқа, ҳали ўттиз ёшга тўлмаган Темур кўп нарсага эришган: ҳукмдорнинг набирасига уйланган ва яқка ўзи шаҳарни бошқара туриб, давлатни юритиш ҳақида билим ва кўникмаларга эга бўлган.

ОМАДЛИ ТЕМУР

Темур ва Ўлжойнинг тўйига Қозағоннинг барча амиру беклари ташриф буюрган. Тўй бир ҳафта давом этган. Орадан бир йил ўтиб, Темур хонадониди Умар Шайх дунёга келган.

Кутилмаганда Мовароуннаҳр ички низолар майдонига айланган. Бунга кекса Амир Қозағоннинг шикорда фитна сабаб қатл этилиши замин яратган. Бу фитнанинг ортида мўғул хони Туғлуқ Темур турган. Қозағоннинг ўғли Мирзо Абдуллоҳ ҳокимиятни бошқаришга укуви бўлмаган ва саройни ишратхонага айлантирган. Бунинг оқибати-

да маҳаллий бек ва амирлар унга қарши исён кўтарган ва маишатпараст Абдуллоҳ Ҳиротга қочиб, умрининг охиригача ўша ерда яшаган.

Бўшаб қолган тахт учун хон ва амирлар ўзаро кураш олиб борган. Улар орасида Амир Ҳусайн ва Шибирғон ҳокими Темур ҳам бўлган. Бу иккала амирнинг нияти-

мала қилишда маслаҳатлар бериб турган.

СОҲИБҚИРОН ОБРЎСИНИ ОШИРГАН МАЛИКА

Машҳур «Лой жанги»даги ғалабадан мўғуллар ҳеч нарса ютишмаган. Самарқанд аҳли она шаҳарларини душмандан ҳимоя қилиш учун оёққа турган. Уларга сарбадорлар раҳнамолик қилишган. Ҳокимиятни қўлга олган сарбадорлар беклар ва амалдорларнинг мулкани талон-торож қилишга киришган оломонни тўхтатиб қолган. Самарқанд ҳокими ва Амир Темурнинг куёви Довуд Барлос қай-

ҳаётини сақлаб қолган. Бу ҳолат Темурнинг эл орасидаги обрўсига обрў қўшган.

Ё МУҲАББАТ, Ё РИШТА...

Амир Ҳусайн Мовароуннаҳр тахтига яна бир одим яқинлашиш учун мўғул маликасига уйланмоқчи бўлган, лекин бу истакни рўёбга чиқариш учун катта маблағ зарур эди. Амир Ҳусайн мўғулларга қарши урушда кўп талафот кўрганини рўқач қилиб, мамлакат аҳолисига катта солиқ солган. Солиқни йиғиш вазифаси Темурнинг куёви Довуд Барлос зиммасига юклатилган. Куёви солиқни тўплай олмасли-

тадбир Самарқанд халқида Темурга нисбатан илиқлик уйғотган, Амир Ҳусайннинг обрўси эса тушиб борган.

У Темурни синглисига зуғум қияпти, деб ўйлаган ва тақинчоқларини топширишга эри мажбур қилган, деган хулосага келган. Синглисини ўзи томонда деб ўйлаган Ҳусайн куёвиги қарши фитна уюштиришни кўзлаган. Дастлаб у режалари ҳақида ҳеч нарса демаган, лекин кунлар ўтиши билан Ўлжой Турконни ўзи томон оғдиришга уринган. Эрининг қарорларини оғаси нотўғри тушунганлигини англаган Ўлжой Темурни бошқача йўл тутишга ундаган, вазиятларни Амирга тушунтиришга ҳаракат қилган. Ўлжой Туркон ҳар қанча уринмасин, оғасини фикридан қайтара олмаган. Натижада Ўлжойнинг ҳеч нарса демай, уйга кетишга ҳозирлик кўришдан бошқа чораси қолмаган. Ҳусайн синглисига Темурга оғу беришни маслаҳат берган. Ўлжой оғасининг илтимосини рад этган ва йўлга тушган. Ўлжой олти ёшли ўғли Умар Шайх ва бир ёшли қизи Султон Бахт Бегим ҳамда оғаси бириктирган хизматкорлар ҳамроҳлигида йўлга чиққан. Амир Ҳусайн сотиб қўйишидан кўрқиб, Ўлжойни ўлдиртирган. Синглисининг ўлимида Амир Ҳусайннинг қўли борлигини тасдиқловчи далил йўқ, лекин унинг беайблиги ҳам исботланмаган. Умар Шайх онасининг ўлими учун тоғаси Амир Ҳусайндан қасос олишган урингани тўғрисида маълумотлар бор. Буни қарангки, Балх шаҳрини бошқараётган Амир Ҳусайн қўшинининг тор-мор келтирилишида Умар Шайх Мирзо етакчи бўлган. Бу қонли жангда Ҳусайн билан бирга унинг икки ўғли ҳам ҳалок бўлган.

Ўлжой Туркон оғанин икки ўт орасидаги қисқа умри мана шундан иборат. У эрига содиқ қолиш учун ўлим билан юзма-юз келган ана шундай қаҳрамон аёл бўлган.

Рустам НУР тайёрлади.

e-tarix.uz



дан хабардор бўлган беклар уларни бир-бирига қарши қайраган.

Бу миш-мишлар ва фиску-фасоддан энг кўп Ўлжой Туркон азият чеккан. Тарозининг бир палласида оғаси, иккинчисида севимли эри турган. Уларнинг иккиси ҳам холис ҳакам сифатида Ўлжойга мурожаат этган. Бу борада Темурга омад кулиб боққан. У навихол завжасининг ақли ва фаросатига таяниб иш кўрган. Хон оиласида тарбияланган бу аёл кўпчиликни таниган ва уларнинг феъл-атвори ҳамда насл-насаби тўғрисида эрига қимматли маълумотларни етказиш баробарида, Темурга у ёки бу зодагон билан қандай муо-

ноғаси билан Кешдалигида унинг қалъасига тажовуз бошланган. Қалъада фақат Темурнинг синглиси Қутлуғ Туркон оғанин ўзи бўлган. Сарбадорлар етакчиси Мавлонозода оломонни амир Довуд Барлоснинг қалъасини хонавайрон қилишдан сақлаб қолган. Орадан қисқа вақт ўтиб, Темур ва Ҳусайн шаҳар остонасида пайдо бўлган ва сарбадорларнинг пешволарини ёлғон эвазига қўлга туширишган. Сарбадорларнинг етакчилари қатл этилган. Амир Темур хотинининг маслаҳатига кулоқ тутган ҳолда қатл ишларидан нарида турган. Темур синглисининг хонадонини талончиликдан асраган Мавлонозоданин

гини билган Темур бу муаммонинг ечимини излай бошлаган. Ечимни топишда Ўлжой Туркон жонбозлик кўрсатган. У Қутлуғ Туркон оға ҳамда унинг эрига ёрдам бериш учун бор зеб-зийнатлари, шу жумладан, Амир Ҳусайннинг ўзи тортиқ қилган тақинчоқларни ҳам Темурга топширган. Ўлжой Турконнинг фикрига Нурмушк оға ҳам қўшилган. Амир Темур тақинчоқларни куёвиги берган. Темур агар Амир Ҳусайн бу тақинчоқлар синглисиники эканлигини билса, фикридан қайтар деб умид қилган, бироқ очкўз Амир Ҳусайн буни билса ҳам, ўзини билмаганга олган. Амир ва унинг хотинлари амалга оширган



QOVOQ – KONI SHIFO

Oshqovoq ko'plab vitaminlar, mikro va makroelementlar, oqsillar va qand moddasiga boy. Parhezshunoslar bu poliz ekini vazn tashlashda yordam berishini ta'kidlashadi, negaki, uning tarkibidagi moddalar organizmdan «ortiqcha» xolesterinni haydaydi, teri holatini yaxshilaydi, moddalar almashinuvini tezlashtiradi. Qovoq arterial qon bosimini tushirishda ham yordam beradi. Yurak bilan bog'liq kasalliklarda bug'da yoki dimlab pishirilganini iste'mol qilish foydalidir.

Oshqovoqni xom holida qirg'ichdan o'tkazib iste'mol qilish gipertoniya, yo'g'on ichak yallig'lanishi, qabziyat, o'tkir va surunkali sistit xastaliklari bilan og'rigan bemorlar uchun foydalidir. Shuningdek, u aterosklerozga qarshi samarali vosita hisoblanib, xolesterin toshmalari hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Ushbu sabzavot tarkibidagi beta-karotin, A vitamini ajinlarga qarshi kurashadi, S vitamini immunitetni ko'taradi, V vitamini qon aylanishini yaxshilaydi, kaliy moddasi esa sochlar salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Oshqovoq sil, ateroskleroz, qabziyat, diabet, podagra kabi dardlarga malham. Organizmni tozalovchi va peshob haydovchi xususiyatga ega bo'lgani uchun shifokorlar uni buyraklar va yurak faoliyati buzilganda hamda tana a'zolari shishganda tavsiya etishadi.

Ushbu mahsulotning urug'i o'simlik yog'lari va oqsillarga boy. Undan gijjaga qarshi vosita sifatida, jigar kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Tarkibida rux moddasi bo'lgani uchun yuz va tanada husnbuzar toshishi, sochlar yog'lanishi va qazg'oq ko'payishining oldini oladi.

Yangi siqilgan qovoq sharbati nafaqat vitamin va mineralarga boy, balki yaxshigina antioksidant hisoblanadi.

Gripp va shamollash alomatlarini kuzatilganda, immunitetni oshirish uchun har kuni ertalab 200 ml sharbat ichish tavsiya etiladi. Shuningdek, u o'z quyuqligi hisobiga kuchli asabiy hayajon, qabziyatda yaxshi samara beradi. Ushbu sharbatdan yuz terisini taranglashtiruvchi, oziqlantiruvchi losyon yoki kompress sifatida ham foydalanish mumkin.

Qandli diabetda qovoqni yirik bo'laklarga kesib, gaz pechida pishirib tanovul qilish koni foyda. Kamqonlikda esa kuniga 4–5 marotaba 20 grammdan qaynatilgan oshqovoq yeyish va bu miqdorni asta-sekin 150 grammacha oshirish tavsiya etiladi.

**Gulchehra
AZIMOVA** tayyorladi.

В ЧЕМ ПОЛЬЗА ЦИКОРИЯ

Цикорий – хороший источник пищевых волокон, которые важны для пищеварения и могут помочь снизить уровень холестерина и улучшить работу сердца. А еще это источник пребиотиков, которые способствуют развитию полезных кишечных бактерий. Также корень цикория помогает снизить уровень глюкозы в крови, что может быть полезно для людей с диабетом. Он снижает кровяное давление. Цикорий натошак притупляет голод, снижает аппетит, поэтому врачи рекомендуют его пить при сбалансированной диете.



Как употреблять

В виде порошка цикорий смешивают с водой для приготовления или добавляют в другие напитки и продукты для аромата. Кроме того, цикорий можно использовать для приготовления сиропа, который будет отличным дополнением к кофе, чаю или другим напиткам. Не рекомендуется пить цикорий с добавлением молока или сливок – ферменты, присутствующие в этих продуктах, препятствуют усвоению многих веществ. Напиток из цикория рекомендуют людям, которым нельзя пить кофе.

Когда его лучше исключить из рациона

Людям с камнями в почках не следует принимать цикорий. Он может ухудшить ситуацию и увеличить риск появления камней из-за высокого содержания оксалатов.

Цикорий может взаимодействовать с некоторыми лекарствами. Например, может влиять на усвояемость препаратов от кровяного давления и антацидов.



ДЕТОКС-КОКТЕЙЛИ: ОЧИЩАЕМ ОРГАНИЗМ

Если вы хотите похудеть, то лучший способ – это много пить воды. Вода помогает избавиться от вредных токсинов в организме, а значит запускает процессы детоксикации.

Польза для организма: улучшение состояния кожи, очищение кровотока, снижение веса, очистка почек, бодрость организма.

Вот несколько рецептов, которые вы легко можете делать дома.

Огуречный детокс

Чтобы сделать этот коктейль, вам нужны: огурец, лимон, грейфрут среднего размера, пара листьев мяты.

Измельчите все ингредиенты, залейте водой и дайте им охладиться. Вы можете пить этот огуречный детокс около пяти раз в день. Вместе с токсинами из вашего тела уйдет и вес.

Яблочный детокс с корицей

Этот коктейль не только вкусный, он также отлично подходит для похудения, потому что корица помогает ускорить метаболизм.

Возьмите литровый графин с водой и добавьте тонкие ломтики яблока, палочку корицы или порошок. Лучше всего, чтобы ин-

гредиенты оставались в воде. Вы можете наполнять графин водой три-четыре раза, используя те же яблоки и палочки корицы.

Имбирный детокс

Имбирь – волшебный корень и довольно эффективно используется в качестве естественного болеутоляющего средства. Для приготовления имбирного детокс-коктейля нужно: в 1 литр воды добавить тертый корень имбиря, дольки лимона, немного лимонного сока. Желательно пить натошак. Он выведет все токсины, скопившиеся за сутки.

**Следует
проконсультироваться с
врачом и подобрать детокс-
коктейли под особенности
вашего организма.**





Intensiv sinov

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining jismoniy tayyorgarligini yuqori darajada tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori»ga asosan mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida «Dovyurak jangchi» intensiv sinovlari o'tkazib kelinmoqda. Sinovlar davomida tizimda kontrakt bo'yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar orasidan jismonan baquvvat va chidamlilari, ekstremal sharoitlarda turli jismoniy yuklamalarga ruhiy bardoshlilari saralanib, «Dovyurak jangchi» farqlovchi nishoniga ega bo'lishmoqda.

Qashqadaryo viloyatida joylashgan «Qo'ng'irtog'» dala o'quv maydonida IIV harbiy tuzilmalari harbiy xizmatchilari o'rtasida tashkil etilgan «Dovyurak jangchi» intensiv sinovlari yakuniga yetdi. Joriy yilning 18-22-sentabr kunlari bo'lib o'tgan mazkur musobaqada vazirlik Qorovul hamda Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlarining 100 nafar harbiy xizmatchisi har jihatdan sinovdan o'tdi.



DOVYURAKLAR SARALANDI



Intensiv sinovlar uch bosqichda o'tkazildi. Birinchi bosqichda harbiylar kompleks kuch mashqlarini bajarib, qanchalik abjirligini namoyish etishgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda 30 km masofaga piyoda yurish va marsh-yugurish mashqlarini bajarishdi. Uchinchi bosqichda ishtirokchilar yagona to'siqslar yo'lagida umumiy nazorat mashqi, o'qotar qurollardan amaliy otish va pichoq uloqtirish mashqlarini bajarib, jangovar salohiyatini sinovdan o'tkazishdi.

Yuqori saviyada o'tgan musobaqa yakuniga ko'ra, bor kuch-g'ayratini namoyon qilgan, jismonan va ruhan chiniqqan 33 nafar kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, xususan, Qorovul qo'shinlaridan 14 nafar, Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlaridan 19 nafar harbiy xizmatchi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Endilikda «Dovyurak jangchi» farqlovchi nishonini taqib yurish huquqiga ega bo'lgan g'oliblar harbiy unvon va lavozim maoshining bir baravari miqdoridagi biryo'la to'lanadigan bir martalik pul mukofoti bilan mukofotlanadi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.



«Я сильная женщина!»

СТАРТОВАЛ ВТОРОЙ ЭТАП ПРОЕКТА

ГУВД города Ташкента объявило старт второго этапа проекта «Мен кучли аёлман!» («Я сильная женщина!»), проводимого управлением профилактики правонарушений.



Цель мероприятия – помочь женщинам в решении ряда вопросов, поддержать их, способствовать дальнейшему развитию. Участников ждет разнообразная программа от психологических семинаров, уроков самообороны, до обучения рукоделию, рисованию. Проводимые занятия позволяют раскрыть личность, укрепить уверенность в себе, наладить общение с окружающими. В конце проекта представительницам прекрасной половины общества будут выданы сертификаты о прохождении курсов, которые непременно пригодятся в жизни.

– Являюсь участницей проекта «Я сильная женщина!». На основании сертификата поступила на учебу, осваиваю разные виды массажа, – говорит **Зарина Хуррамова**. – Уже обучилась детскому мас-

сажу. Кроме этого, хожу на дополнительные занятия по анатомии, физиологии. Очень довольна проектом.

– Обучаюсь в Ташкентском центре креативных технологий по направлению косметологии. Здесь созданы все условия, педагоги квалифицированные. Мне очень нравится. Выражаю огромную благодарность организаторам столь важного проекта. Я уже могу проводить некоторые косметологические процедуры, – делится мнением **Мадина Хуррамова**.

– Изначально моим направлением был пошив одежды. Но, поскольку был интерес к другим ремеслам, изучила работу каждого обучающего кабинета. Среди всех выбрала ювелирное дело, – рассказывает **Хуршида Худойбердиева**. – Пробую себя в этом направлении, все получается



Не оставлены без внимания и участницы первого этапа реализуемого проекта. Инспекторы по вопросам женщин продолжают поддерживать их, регулярно узнают, чем они занимаются, как проходит обучение. С некоторыми из них нам удалось пообщаться и получить отзывы.



красиво и замечательно. Надеюсь в будущем открыть свой бизнес. Благодарна представителям органов внутренних дел за поддержку.

– Обучаюсь на смм-специалиста. Уроки продвигаются хорошо, мне все нравится. Курс продлится два месяца. Затем будет сдача экзаменов. В будущем планирую работать по специальности и обеспечивать себя, – говорит **Робия Маруфжоновна**.

MUNAJJIMLAR BASHORATI (2-8-oktabr)



Qo'y. Safarlar, sayohatlar va yangi ish boshlash uchun qulay davr. Shuningdek, bu haftada rejalashtirilgan muhim ish uchrashuvlari muvaffaqiyatli kechib, biznes va shaxsiy hayotda ko'pgina ijobiy natijalar olib keladi. Haftaning so'nggi kunlarini oila davrasida yaqinlaringiz bilan o'tkazing.



Buzoq. Ko'ngil xotirjamligi va sokinlikdan, sevimli ishingizdan va yoqimli insonlar bilan muloqotdan bahra oling. Haftaning ikkinchi yarmi istiqbolli rejalar uchun samarali davr, uni qo'ldan boy bermaslikka harakat qiling. Dam olish kunlari yaqinlaringizni va keksalarni ziyorat qilishni kanda qilmang.



Egizaklar. Ijodiy shijoat boshingiz bilan ishga sho'ng'ishga majbur etishi mumkin. Nimanidir qo'l mehnati yordamida bajarish zarur bo'lsa, buni hech ikkilanmay, albatta, amalga oshiring. Aynan hozir to'g'ri qaror qabul qilish uchun qulay davrdir. Daromad kelishi aniq bo'lsa-da, pullarni behuda sarflashdan tiyiling.



Qisqichbaqa. Mazkur hafta oilaviy masalalarni yoki anchadan beri o'z yechimini topa olmayotgan muammolarni hal etish uchun qulay davrdir. Ushbu kunlarda kayfiyatingiz ko'tarinki bo'lib, qo'l urgan aksariyat ishlaringiz baroridan keladi. Buning uchun yanada faol harakat qilish talab etiladi, xolos.



Arslon. Bu hafta katta daromadni va'da qilmoqda. Yaxshigina pul ishlab olish taklifi kelib tushsa, bunday imkoniyatdan foydalanib qoling. Yaqinlar bilan munosabatda odatdagidan muloyimroq va mehribon bo'ling. Ularga ayni damda sizning qo'llab-quvvatlashingiz juda zarur.



Parizod. Bu hafta ulkan ish rejalarini tuzishga oshiqmang, kutilmagan xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling. Negaki, bu haftada kasbiy sohangizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Imkon qadar atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarga bormang. Dam olish kunlarini sevimli va qadrlil insonlar davrasida o'tkazing.



Tarozi. Bu hafta mojarolar, kelishmovchiliklar va bahs boylashlardan yiroq turing. Kutilmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu boisdan his-hayajonlaringizni boshqarib, imkon boricha bosiqlik bilan harakat qiling. Og'ir boshlangan haftaning ikkinchi yarmida atrofdagilar bilan munosabatingiz samimiylashib, o'zingizni yengil his qilasiz.



Chayon. Bu hafta o'zingizga vaqt ajratish uchun qulay vaqtdir. Ishda rag'batlantirish olish yoki lavozimingiz ko'tarilishi ehtimoli yuksak. Lekin hissiyotga berilib, xatoga yo'l qo'yiladigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun har bir ish-harakatni yaxshilab o'ylab ko'rib, so'ngra amalga oshiring. Dam olish kunlari imkon qadar oila a'zolaringiz bilan sayrga chiqing, birgalikda vaqt kechiring.



O'qotar. So'nggi davrda o'zingizga juda kam vaqt ajratyapsiz. Salomatlik va tashqi ko'rinishga jiddiy e'tibor qarating, shunda ko'tarinki kayfiyatga ham ega bo'lasiz. Bu haftada yirik pul aylanmalari bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish tavsiya etilmaydi. Aksincha, ayni damda mablag' sarflash emas, pul yig'ish lozim bo'ladi.



Tog' echkisi. Ba'zi ishlar ko'ngildagidek ketmayotgan bo'lsa, tushkunlik va umidsizlikka tushmang. Tez orada ularning hammasi yaxshilikka bo'lganini anglab yetasiz. Shaxsiy hayot borasida hushyor va sinchkov bo'lgan ma'qul. Biron tanlov oldidan ko'p karra yaxshilab o'ylab ko'rishni unutmang. Bu hafta ish bilan bog'liq uchrashuvlar uchun muvaffaqiyatli davrdir. Omadingizni qo'ldan boy bermaslikka intiling.



Qovg'a. Hafta yakunigacha to'planib qolgan barcha ishlarni hal etishga harakat qiling. Vaqt o'tishi bilan ularni bajarish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'zingiz uchun vaqt ajrating, masalan, oqshomlari sayrga chiqing, dam olish kunlari maroqli dam oling. Shahar chetiga oilaviy chiqish yoki kichik bir sayohat uyushtirish mumkin.



Baliq. Dushanba va seshanba kunlari moliyaviy ahvolingiz yaxshilanib, shu kunlarda sarmoyali takliflar olishingiz mumkin. Ayni hafta faol harakatlar davri bo'lib, kelgusi muvaffaqiyatlarga erishish va faoliyatda yordam beruvchi foydali aloqalarni o'rnatish uchun yaxshi imkoniyatdir. Hordiq kunlarida barcha uchrashuvlarni bekor qilib, vaqtni huzur va halovatda o'tkazgan ma'qul.





Ma'naviyat marshrutlari

RISHTON – MOHIR KULLOLLAR YURTI



Rishton – Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Farg'ona vodiysining qadimiy shaharlaridan biri sanaladi. Bu zamin-da yashovchi odamlar qadim zamonlardan buyon kulolchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Shu hunar egalari istiqomat qilgan ming yillik tarixga ega «Dahbed», «Chinnigaron», «Ko'zagaron», «Kulolon» kabi mahallalar mavjud bo'lib, hozir ham bu yerda ustazoda kulollar umrguzaronlik qiladi.

gan II Xalqaro hunarmandchilik festivali doirasida Rish-tonda I Xalqaro kulollar forumi bo'lib o'tdi.

Unda xorijlik va mahalliy kulollar o'zlari yasagan mahsulotlarni namoyish etishdi. Turli mamlakatlardan kelgan hunarmandlar va mutaxassislar ishtirokida mahorat darslari tashkil etildi.

– Rishton kulolchiligi meni juda hayratga soldi, – deydi eronlik hunarmand Zahra Aslani. – Bu yerdagi ustalarning nozik sir-asrorlarini o'rganish bilan birga, ular bilan doimiy hamkorlik qilish, o'zbek kulolchiligi usullarini Eronda

Ilgari rishtonlik kulollar o'z uyida, tor ustaxonalarda ishlardi. Tumanga tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar uchun esa shart-sharoit deyarli

ining tashkil etilishi nafaqat bizni bir joyga jamladi, balki an'anaviy kulolchilik sir-asrorlarini o'rganish, yo'qolib ketgan turlarini tiklash, o'zaro taj-



yo'q edi. Davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan Rishtonda Xalqaro hunarmandchilik markazi tashkil etildi.

Markazda 20 ta ikki qavatli kulollar xonadoni, Rishton tarixi muzeyi, bank xizmatlari shoxobchalari barpo etilgan. Birinchi qavatda ustaxona va savdo do'konlari joylashgan, ikkinchi qavatda esa hunarmandlar oilasi yashaydi. Markaz foydalanishga topshirilishi bilan 250 ga yaqin ish o'rne yaratildi.

– Rishton kulolchiligi ming yillik tarixga ega. Avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan bu hunarni 12 yoshimdan o'rganishni boshlaganman, – deydi O'zbekiston xalq ustasi, mashhur kulol Alisher Nazirov. – Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha qulayliklarga ega Xalqaro kulolchilik markaz-

riba almashish, bir so'z bilan aytganda, Rishton an'anaviy kulolchiligini rivojlantirishga turtki bo'ldi. Hozirda 140 nafardan ortiq shogirdim bor.

Mohir kulolning aytishicha, ayni paytda markazda 20 nafar kulolchilik shajarasi vakillari faoliyat yuritmoqda. Har bir ustaning o'z kasb sirlari, idish yasash usullari bor. Rishton kulolchiligining o'ziga xosligi – bu mahalliy o'tlardan sir tayyorlashdir. Bunda kimyoviy vositalardan foydalanilmaydi.

ham qo'llash, ommalashtirish borasida maslahatlashib oldim.

Rishton tumanida ushbu markazdan tashqari yana 3 ta kulolchilikka ixtisoslashgan hunarmandlar markazlari barpo etilgan, 2 ta kulolchilik mahallasi tashkil topgan. Bu esa ko'p yillardan buyon asrab-avaylanib, ardoqlanib kelinayotgan kulolchilik hu-



Joriy yilning 22-sentabr kuni markaz katta xalqaro anjumanga mezbonlik qildi. Qo'qon shahrida o'tkazilayot-

narining umri yanada boqiy bo'lishidan darak beradi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchi –

kapitan
Mixli SAFAROV

Sahifalovchilar –

Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma №V-5602.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50435 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postdauz